



## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I BOB. OYBEK O‘ZBEK ADABIYOTINING YIRIK NAMOYANDASI SIFATIDA</b>	
1.1 Oybekning o‘zbek nasri taraqqiyotida tutgan o‘rni.....	9
1.2 Oybek romanlarida davr talqini masalasi.....	16
<b>II BOB. “NAVOIY” ROMANINI O‘RGANISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLGI</b>	
2.1 “Navoiy” romani tahlilida tarixiy-qiyosiy usulning ahamiyati.....	26
2.2 Oybek asarlarini o‘rganishda biografik metoddan foydalanish...	40
<b>III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI</b>	
3.1 Oybek asarlarining ta’lim tizimida o‘rganilishi.....	46
3.2 Interfoal usullar orqali Oybek ijodini tadqiq etish.....	51
3.3 Ochiq dars ishlanmasi.....	63
<b>XULOSA</b> .....	69
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b> .....	71
<b>TAYANCH SO‘ZLARNING O‘ZBEKCHA-INGLIZCHA LUG‘ATI</b> .....	73

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Istiqlol yillarida ma'naviy hayotimizni isloh qilish va yangilashga e'tibor yanada kuchaydi. Endilikda ma'naviy, adabiy, diniy qadriyatlarimizni tiklash va buni har tomonlama yetuk inson kamolotiga yo'naltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu esa bizga adabiy merosimiz namoyandalari ijodini yangicha qarashlar asosida o'rganish va tahlil etish imkonini beradi. Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"<sup>1</sup>, deb ta'kidladilar. Prezidentimizning bu fikrlari bevosita adabiy ta'limga ham taalluqlidir. Shoir va yozuvchilarimiz asarlarini zamonaviy ta'lim usullari asosida o'rgatish orqali yosh avlodni zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson sifatida kamol topishlariga erishishimiz lozim.

Musa Toshmuhammad o'g'li Oybek (1905-1968) o'zining ibratli hayoti va intilishlari, sermaxsul va samarali ijodiy merosi bilan adabiyotimiz nufuzini jahoniy miqyoslarga ko'tarishga barakali hissa qo'shdi. Ulug' akademik shoir, nosir, adabiyotshunos va tarjimon Oybek ijodiy merosi madaniyatimiz va adabiyotimizning tarkibiy qismi bo'lib, uning ijodini o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ammo bugungi kunda ulug' shoir ijodiy merosini bilish va tadqiq etish g'oyatda muhimdir. Shuning uchun ham shoir ijodiga chuqurroq kirib borish, asarlarining o'ziga xos jihatlarini yoritish, uning san'atkorlik mahoratini bilib olish uchun har bir asarini yangicha qarashlar asosida tahlil etishimiz va o'quvchi yoshlarga o'rgatishimiz zarur. Zero, Oybek ijodida bugungi kun uchun zarur bo'lgan ma'naviy yetuklik, milliy g'urur, o'zlikni anglash tuyg'ulari yuksak darajada aks

---

<sup>1</sup> Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi. "Xalq so'zi" // 2016 yil 8 dekabr.

ettirilgan. Shu ma'noda biz ushbu BMIda Oybek asarlarini qiyoslab o'rganish metodikasi masalasini o'rganishga va ayrim umumlashmalarimizni bayon etishga harakat qildik. Ushbu masala ilk bora tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmoqdaki, bu ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

**Mavzuning o'rganilish darajasi.** Oybek haqidagi adabiy tanqidiy maqolalar ijodining ilk davrlaridan boshlanib, bizning kunlarimizgacha davom etmoqda. Agar Mirkarim Osimning "Tong yulduzi" devoriy gazetasida chop etilgan "Oybek va uning she'rlari" maqolasini (1925) shoir ijodi tadqiqiga bag'ishlangan ilk jajji tadqiqot<sup>2</sup> sanasak, Oybek tavalludining 100 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Milliy universiteti tomonidan nashr qilingan "Millatni uyg'otgan adib"<sup>3</sup> maqolalar to'plamini keyingi yillarda yaratilgan salmoqli tadqiqotlar sirasiga kiritishimiz mumkin bo'ladi.

Oybek hayoti va ijodini sinchkovlik bilan o'rgangan olimlardan biri H.Yoqubovdir<sup>4</sup>. Olimning adabiy tanqidiy ocherk va monografiyalari faktik materiallarga g'oyatda boy bo'lib, adabiyotshunos Oybekning ijodiy kamolotini o'zbek adabiyotining taraqqiyot tamoyillari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganadi. Jumladan, zamonaviylik va tarixiylik, an'anaviylik va novatorlik, shakl va mazmun, ziddiyat va xarakter, realizm va badiiy to'qima, lirik konflikt va lirik xarakter, epik va liro-epik janrlarning o'ziga xos xususiyatlari singari masalalar atrofida baxs yuritadi.

Akademik Matyoqub Qo'shjonovning "Oybek mahorati"<sup>5</sup> adib ijodining takomili badiiy mahorat, uslub nuqtai nazaridan o'rganiladi. Olim Oybek asarlarida xarakterlarning shakllanishiga alohida e'tibor bergan.

Oxunjon Sobirovning "Oybek ijodida folklor"<sup>6</sup> risolasida Oybekning xalq og'zaki ijodidan foydalanish mahorati xususida so'z boradi. Adabiyotshunos Oybek

---

<sup>2</sup> XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Universitetlar va pedagogika institutlari bakalavr ixtisosini oluvchilar uchun darslik. –Toshkent: O'qituvchi, 1999. –B. 197.

<sup>3</sup> Millatni uyg'otgan adib. – Toshkent: Universitet, 2005.

<sup>4</sup> Yoqubov H. Oybek (adabiy tanqidiy ocherk). – Toshkent: O'zadabiynashr, 1950; Yoqubov H. Oybek lirikasida g'oyaviylik va mahorat. –Toshkent: Fan, 1963; Yoqubov H. Adibning mahorati. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965

<sup>5</sup> Qo'shjonov M. Oybek mahorati. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965; Bat L, Qoshchanov M. Aybek. Kratko-biograficheskiy ocherk. – Москва: 1966.

<sup>6</sup> Sobirov O. Oybek ijodida folklor. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975.

poemalaridan, “Qutlug‘ qon” romanidagi Yo‘lchi xarakteridan, “Navoiy” romanining insonparvarlik pafosidan, “Oltin vodiyan shabadalar” romanidagi jamoa hayoti tasvirlaridan folklor unsurlarini izlaydi.

Akademik Baxtiyor Nazarovning “Bu sehrli dunyo” risolasida Oybek hayoti va ijodi ilmiy-badiiy nuqtai nazardan tadqiq etiladi<sup>7</sup>. Bu hol olinga fikr-xayol parvozlarini erkin qo‘yish, mulohazalariga badiiy-estetik qanot bag‘ishlash imkonini beradi. Risolada Oybek estetik qarashlari XX asr adabiy – estetik tafakkuri rivoji bilan tarixiy aloqadorlikda tadqiq etiladi.

Professor Naim Karimovning “Oybek” (Mashhur o‘zbek adibining hayoti va ijodidan lavhalar)<sup>8</sup>, “Oybek gulshanida qolgan g‘unchalar”<sup>9</sup> asarlari, shuningdek, O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasining oltinchi jildidan o‘rin olgan “Oybek”<sup>10</sup> maqolasida Oybek hayoti va ijodi mushkul bir davrda tug‘ilib, mashaqqatli hayot qo‘ynida ulg‘aygan shaxsning dilini nurafshon etgan orzular ifodasiga qanot bag‘ishlagan omillarni anglashga intilish tarzida yoritiladi. Oybek asarlarining 10 jildligi 1967-1975 yillarda chop etilgan bo‘lsa, uning mukammal asarlar to‘plami 19 jildligi 1975-1982 yillarda chop etilganligi adabiyotshunosligimizning ulkan yutug‘i bo‘ldi<sup>11</sup>. Shubhasiz, bu yirik tekstologik tadqiqotning yuzaga kelishida Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti (Institut o‘sha paytda A.S.Pushkin nomi bilan atalgan) zahmatkash olimlarining xizmatlari beqiyos bo‘lgan.

Kezi kelganda shuni ham ta’kidlash kerakki, Oliy ta’lim uchun yaratilgan adabiyot darslik va o‘quv qo‘llanmalarida ham Oybek ijodi keng tarzda o‘rganilgan. Jumladan, 1971 yildagi darslikdan Homil Yoqubov, 1990 yildagi darslikdan Baxtiyor Nazarov, 1993 yilgi o‘quv qo‘llanmadan Saydulla Mirzaev va Said Shermuhamedov<sup>12</sup>, 1999 yildagi darslikdan Naim Karimov<sup>13</sup>larning Oybek ijodiy portretini aks ettiruvchi

---

<sup>7</sup> Nazarov B. Bu sehrli dunyo. – . – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1980.

<sup>8</sup> Karimov N. Oybek. Mashhur o‘zbek adibining hayoti va ijodidan lavhalar. – Toshkent: Yosh gvardiyai, 1985.

<sup>9</sup> Karimov N. Oybek gulshanida qolgan g‘unchalar. – Toshkent: 1985.

<sup>10</sup> Karimov N. Oybek. O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi. 6-jild. – Toshkent: 2003. – B. 474-477.

<sup>11</sup> Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. (19 jildlik) – Toshkent: Fan, 1975-1982.

<sup>12</sup> Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti tarixi – Toshkent: O‘zbekiston, 1993. – B.151-179.

<sup>13</sup> XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999. – B:196-224.

maqolalari o‘rin olgan. Mazkur darslik va o‘quv qo‘llanmalari mafkuraviy yondoshuviga ko‘ra o‘z yaratilgan davriga nisbatan, shuningdek mualliflarning pozitsiyasiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Yuqorida bu mualliflarning Oybek shaxsiyati va ijodiga munosabatiga to‘xtalganimiz sababli ushbu o‘rinda tafsilotlar bayonidan tiyildik.

Taniqli shoir, nosir va adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdamning “Badiiy tafakkur tadriji”(monografiya va maqolalar) kitobi<sup>14</sup> XX asr o‘zbek she‘riyatining tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda she‘riyatning shaklan, mazmunan yangilanish jarayoni xususida baxs etiladi. Monografik izlanishning beshinchi fasli<sup>15</sup>da Oybek “sof lirika”sining mohiyati va estetik qimmati masalasi atroflicha yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Musso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek tavalludining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi 2004 yil 21 dekabrda Qarori <sup>16</sup> qabul qilindi. Yubileyning tadbirlar rejasiga muvofiq adabiy-badiiy tadbirlar qatorida Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti respublika filolog olimlarining “Millatni uyg‘otgan adib” nomli to‘plamini nashrdan chiqardi.<sup>17</sup>

Farg‘ona Davlat universiteti dotsenti Akbarali Sabriddinov qalamiga mansub “Oybekning she‘riy mahorati” monografiyasi<sup>18</sup> da Oybek she‘riyatining ta’sir manbalari, fikr va tuyg‘u uyg‘unligi, musiqiylik, milliylik kabi badiiy latofat omillari o‘rganiladi. Ko‘rinadiki, Oybek shaxsiyati va ijodini o‘rganish masalasi bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan. Ammo shu paytgacha Oybek romanlarini interfaol usullarda o‘rganish masalasi maxsus tadqiq etilmagan. Oybekshunoslikda amalga oshirilgan mavjud tadqiqotlar muammoni o‘rganishda o‘ziga xos nazariy asos vazifasini o‘tashga xizmat qila oladi.

---

<sup>14</sup> Ulug‘bek Hamdam. Badiiy tafakkur tadriji. Monografiya va maqolalar. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002.

<sup>15</sup> Ulug‘bek Hamdam. Oybek “sof lirika”sining mohiyati va estetik qimmati // Badiiy tafakkur tadriji. Monografiya va maqolalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – B.71-90.

<sup>16</sup> O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2004 yil, 24 dekabr, № 51-52 (3777).

<sup>17</sup> Millatni uyg‘otgan adib. – Toshkent: Universitet, 2005.

<sup>18</sup> Sabriddinov A. Oybekning she‘riy mahorati. – Toshkent: Fan, 2006.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Tadqiqot ishimizning maqsadi Oybek asarlarini qiyoslab o`rganish metodikasi mavzusini tadqiq etishdan iboratdir. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni hal etishga urindik:

- Oybekning o‘zbek nasri taraqqiyotida tutgan o‘rni;
- Oybek romanlarida davr talqini masalasi;
- “Navoiy” romani tahlilida tarixiy-qiyosiy usulning ahamiyati;
- Oybek asarlarini o‘rganishda biografik metoddan foydalanish;
- Oybek asarlarining ta’lim tizimida o‘rganilishi;
- Interfoal usullar orqali Oybek ijodini tadqiq etish va boshqalar.

**Tadqiqot manbai.** Ilmiy ish oldiga qo‘yilgan maqsad hamda vazifalardan kelib chiqqan holda tadqiqot ob’ekti uchun Oybekning umumta’lim maktablari va akademik litseylarda o‘rganiladigan “Navoiy” va “ Qutluq qon” romanlarini asos qilib olindi. O‘rni bilan adib ijodining tadrijiy takomilini ko‘rsatish maqsadida Oybekning liro-epik merosiga ham murojaat qilindi.

**BMIning metodologik asosini** Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoevning ma’naviyat, adabiyot va san’atga oid qarashlari tashkil etadi. Shuningdek, o‘zbek adabiyotshunos va metodist olimlaridan I.Sultonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, B.Nazarov, B.To‘xliiev, M.Mirqosimova, Q.Yo‘ldoshev, R.Niyozmetova, I.Yoqubov, va boshqalarning ilmiy-nazariy, metodik qarashlari ishimizni amalga oshirishda metodologik asos vazifasini o‘tadi.

**Tadqiqotning metodi.** Mavzuni yoritish jarayonida tadqiqotda qiyosiy-tipologik va tarixiy-qiyosiy usullardan bilan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Ushbu tadqiqotda Oybek romanlarini o‘rganishning interfaol usullarini tadqiq etildi. Unda Oybekning yozuvchi va olim sifatidagi intellektual tafakkurini anglashga harakat qildik. Oybek romanlarini yuqori sinfda o‘rganilishini tahlil etildi. Akademik litseyda yozuvchi ijodini o‘rganishni kuzatdik. Oybek romanlarini o‘rganishning interfaol usullarini tadqiq etildi. Roman

janridagi asarlarni o'rganishda qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalari haqida ma'lumot berildi. Qahramon ruhiy kechinmalarini tahlil qilish usullarini yoritildi. Ishda Oybek ijodiy merosiga va badiiy mahoratiga yangicha munosabatlar asosida yondoshildi. BMIning ilmiy yangiligi shu jihatlarda namoyon bo'ladi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotdan kelib chiqadigan ilmiy xulosalar adabiyotshunoslikka, xususan, oybekshunoslikka tegishli muammolarni ma'lum ma'noda oydinlashtirishga yordamlashadi. Ilmiy ish materiallari Oybek ijodini kengroq anglashga bag'ishlangan fundamental ishlar uchun qo'shimcha manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan umumta'lim maktablarida va akademik-litsey, kasb-hunar kollejarida Oybek merosini o'rganishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi.** BMI tarkibiy tuzilishiga ko'ra kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va tayanch so'zlarning o'zbekcha-inglizcha lug'atidan iborat.



## **I BOB. OYBEK O‘ZBEK ADABIYOTINING YIRIK NAMOYANDASI SIFATIDA**

### **1.1. Oybekning o‘zbek nasri taraqqiyotida tutgan o‘rni**

Muso Toshmuhammad o‘gli Oybek adabiyot maydoniga 20-yillarning boshlarida dastlab lirik shoir sifatida kirib kelgan. Oybekning ilk she'riy asarlari hali u texnikumda o‘qib yurgan kezlaridayoq yozilgan. Yosh shoirning matbuotda e'lon qilingan birinchi she'ri “Cholg‘u tovushi” deb ataladi (“Armug‘on” to‘plami, 1922-yil.). Keyinchalik shoirning “Tuyg‘ular” (1926), “Ko‘ngil naylari” (1929), “Mash'ala” (1932) singari she'rlar to‘plamlari birin-ketin yuzaga kela boshladi. Bu asarlar yangi-o‘zbek she'riyatiga nodir bir iste'dod sohibi kirib kelganligidan dalolat beradi.

Oybekning adabiyotda o‘z o‘rnini topishi va ijodiy o‘sishi osonlikcha bo‘lmadi. Shoir yoshligida murakkab ijodiy o‘shish-izlanish davrini boshidan kechirdi. Oybek o‘z ijodiy yo‘lidagi ana shu o‘nqir-cho‘nqirlarni nazarda tutib: «Mening birinchi she'rlarimda qarama-qarshiliklar, izlanishlar hali ko‘p edi. Zamonaning eng muhim voqealariga javoban yaratilgan she'rlar bilan bir qatorda... mungli nido bilan sug‘orilgan, mavhum, tushkunlik ruhida yozilgan she'rlar ham bor edi», — deb yozgan edi. Shoirning “Kuz va qiz”, “Qish kechalari”, “Xotiradan izlar”, “Farg‘ona oqshomi”, “Ayriliq va darvesh”, “Sharq uchun”, “O‘zbek eli» kabi she'rlari “tushkunlik ruhida yozilgan” asarlardandir. Ularda mungli nido alomatlarining uchrashi o‘sha davr hayotida mavjud bo‘lgan haqsizlik va ijtimoiy

adolatsizlikka qarshi norozilikning o'ziga xos ifodasidir. Oybek yoshligidanoq haqiqatni yozish, xalq ruhiyatini haqqoniy aks ettirish yo'lidan borgan. Oybek o'z taqdirini xalq taqdiri bilan mahkam bog'laydi, tinmay izlanadi, hayotni sinchiklab o'rganadi. 1928-yilda: "Og'aynilar! Davrimizni qalbga solganman. Cho'llardagi sarob izni anglab olganman. Kurashadi ikki to'lqin qarab turaymi?", – deb xitob qilishi ("Tovushim") shoirning sho'rolar pozitsiyasini ma'qullaganidan dalolatdir. Oybek o'z ijodining ilk davrida Cho'lpon ta'sirida bo'lgan. Undan ko'p narsa o'rgangan. Buyuk shoir ta'sirida qator cho'lponona she'rlar yaratgan. Oybek XX asr o'zbek adabiyotini o'ziga xos uslub va mahorat ila yaratgan badiiy olami bilan boyitdi. Shoir yaratgan poetik durdonalar Sharq mumtoz shariyatidan oziqlangan. Muallifning tiniq tuyg'ulari orqali ta'sirchanlik kasb etdi. U XX asr rus ijodkorlari asarlariga xos an'analar Oybek shariyatiga ko'chdi, sintezlashdi, muhim ta'sir manbaiga aylandi. Ayniqsa uning antik Rim va rus adabiyoti namunalari tarjima qilish asnosida adabiy-ijodiy tajribasi mahoratining shakllanishida muhim omil bo'ldi. Ijodi misradan misraga takomillashib, sayqal topib bordi. Yangi-yangi poetik ifodalar, tsivrlar, so'z va tovush tovlamalari orqali yanada kuchli jopziba hamda ta'sir kuchiga ega bo'lib bordi.

Oybek 20-yillarda asosan o'rganish va izlanish davrini o'tagan bo'lsa, 30-yillarda ijodiy kamolot bosqichiga ko'tarildi va boy til ekanini inkor qiluvchilarga qarshi dadil kurashadi. o'zbek tilining boyligini amalda namoyish qiluvchi ajoyib badiiy asarlar yaratadi. Oybekning "Qutlug' qon", "Quyosh qoraymas", "Navoiy" kabi mashhur romanlari mavjud. Ayniqsa, Adibning "Navoiy" (1944) romani o'zbek adabiyoti tarixida faxrli o'rin tutadi. Yuzaki qaraganda, Oybek urush yillarida uzoq o'tmish mavzusida "Navoiy" romanini yaratish bilan o'sha jangovar davr talablaridan uzoqlashganday ko'rinadi. Aslida esa bunday emas. Chunki Oybek o'tmish voqeligini aks ettirish, buyuk tarixiy shaxs Alisher Navoiy obrazini yaratish, uning Vatanga va xalqqa bo'lgan cheksiz muhabbatini tasvirlash asosida vatanparvarlik, insonparvarlik, qahramonlik va yomonlikka nafratni targ'ib qildiki,

urush davri talablariga to'la mos kelar edi va shuningdek, ushbu asar Oybekning qanday badiiy kuchga ega ekanligini ko'rsatib berdi. O'sha davr hamnafas adiblardan biri Shuhrat Oybekni ushbu asari uchun davlat mukofoti olganida qutlash uchun borganidagi holatni quyidagicha tasvirlaydi. Esimda bor, "Navoiy" romaniga SSSR Davlat mukofoti berildi, Buni men ertalab radioda eshitdim. Bu vaqtda "Yosh leninchi" gazetasida ishlar edim, Idoraga kelsam, shoir Yong'in Mirzo o'tiribdi. "Oybek domlann tabriklab kelmaymizmi?" – deb qoldi. Uyiga yo'l oldnk. Oybekning uyi remontda zkan. Domla ochiq chehra bilan qutib olib, bir tomoniga talay kitoblar qalashtirnb taxlangan xonaga taklnf etdi. Ularning orasida zamonaviy kitoblar bilan bir qatorda eski, inqmlbgacha turli shaharlarda chiqqan arab alifbosidagi kitoblar ham bor edi. Biz Oybek domlani tabrikladik. U hayron bo'lib, qoracho'g'i yirik ko'zlarini charaqlatib, tikilib qoldi. Birdan so'radi

– Qaysi Oybek? Qaysi Oybekni mukofotlashdi!- deb qoldi.

Biz hayron qoldik. Hatto taajjublandik. Oybek akaning hali bu yangilikdan xabari yo'q ekanmi, yoki xayoli parishonroq bo'lib turgai ekanmi, bilolmadik. Keyin idrok etgach, ko'zlari yonib, quvonib ketdi. Yaxshi bo'пти! Yaxshn bo'пти! – deb turdi-da, xonaning yarmini egallab yotgan kitoblarni ko'rsatib, ta'kidladi:

– Mana shularni o'qib yozganman, juda material ko'p!

Oybek domlaning tabiati juda g'alati edi. Kibrlanish, maqtanish nima bilmasdi. Yaxshi ish qilishni har sog'lom odamning burchi deb bilardi, dilidagi bor gapni aytib qo'ya qolardi. Bu bor gapning kibrlanishga o'xshab ketishi bilan ishi yo'q edi. Chunki tabiatan juda xokisor, halol, fikrchan, ko'ngln ochiq odam edi. Shuning uchun yuqoridagi holat Oybek domlani bilmagan odamga g'alatiroq tuyulishi mumkin. Lekin biz ajablanmadik, uning xarakterini juda yaxshi bilardnk, ko'p suhbatlarini eshitganmiz, nasihatlarini olganmiz.

Bir hodisa esimdand chiqmaydi. Bu vaqtda Oybek hali faqat shoir edi. Omadi ham hali uncha kelmagan payt. Uning she'rlarini xolis bo'lmagan ko'z bilan qayta-qayta sinchiklab o'qiydiganlar hali topilardi. Bu vaqtda men student, kechqurun

O'zbekiston yozuvchilar soyuzi qoshidagi konsul`tatsiya byurosida kotib bo'lib ishlardim. Hozirgi "Sharq yulduzi" jurnalidan oldin chiqqan "O'zbekiston sovet adabiyoti va san'ati" jurnali ham shu binoda edi. Bir kuni Oybek "Gulnoz" dostoninn olib keldi. Boshlanishidan bir ozgina o'qib, jurnalga qoldirib ketdi. Doston arab alifbosida, qo'lda bitilgan edi. Ana shunda men birinchi bor Oybekning dastxatini ko'rganman. Uncha chiroyli emas, lekin kishi qiynalmasdan o'qiydigan shaklda tiniq va dona-dona. Doston hadeganda jurnalda bosilmadi. Bu orada Oybekning o'zi haqida gap chuvalib, gazetalarda ham nomi qayd qilina boshladi. Bir kuni mundoq qaragam, "Yosh leninchi" gazetasida jurnal kotibining ana shu qo'lyozma holidagi doston haqida salbiy maqolasi bosilib chiqdi. Ostida davomi borligi ham aytilgan, ertasiga yana chiqdi. Yana "davomi bor» deyilgan. Menga malol keldimi, yoki Oybekka bo'lgan muhabbatim qahrimni qo'zg'adimi, kechqurun ishga keldim, jurnal kotibining tortmasini qaragam, doston turibdi. Nojo'ya ish qilayotganim ham esimga kelmasdan, dostonnn qo'limga oldimu o'z joyimga borib o'tirdim. Bir lahza qo'rqinch aralash hayajon bosdi. Keyin dostonni portfelimga solib uyimga olib ketdim. Doston haqidagi maqolaning davomi gazetada yana chiqdi. Lekin avtor fikrlarini "isbotlash" uchun bu gal doston dan misol keltira olmagan edi. Chunki doston "yo'qolgan" edi. Kotib maqolani peshma-pesh yozib berayotgan ekan. Shu olinganicha doston menda qolib ketdi. Yillar o'tdi. Bir kuni Oybek domlaga bu sirni ochdim. U kishi o'ziga xos og'irlik bilan kuldi-yu, indamadi. "Keltirib beraymi, o'zingizda nusxasi bormi?" – desam, "Bor" dedilar. Dostonning o'sha nusxasi hamon menda saqlanadi.

Oybek o'zini menga juda yaqin tutardi. Yaqin tutishining sabablaridan biri shu voqea bo'lsa ajab emas! Keyiichadik "Navoiy" romanining bir nusxasini avtograf bilan taqdim etdi. Unga "Shoir Shuhratga yurakdan armug'on» deb yozilgan. Bu yuksak armug'on buyuk adibdan esdalik sifatida kutubxonamning eng to'rida turadi. Xuddi shunday ajoyib bir lavhaning guvohi bo'lganman. 1945 yil, fashistlar ustidan g'alaba qozondik. Kishilar va tashkilotlar g'alabani o'zicha

nishonlamoqda. O'zbekiston yozuvchilar soyuzi ham bu tarixiy kunni tantanali kecha bilan nishonlash rejasini tuzdi. Bu vaqtda Oybek O'zbekiston yozuvchilar soyuzining raisi edi. Yozuvchilar soyuzi esa, hozirgi Adabiyot fondining poliklinikasi joylashgan, Birinchi may ko'chasining 20-uyida edi. Katta tantanali yig'ilishdan keyin binoning ikkinchi qavati foyesida, bufet o'rnashgan yerda ziyofat bo'ldi. Oybek o'z tengqurlari bilan yuqorida, biz yoshlar esa pastroqda o'tirardik. Kim nimaiki istasa, bufetdan xarid qilishi mumkin edi. Albatta, biz yoshlarning dasti qisqaroq, ko'p narsaga qurbimiz yetmasdi, sal o'tmay bir-birimizga tikilishib qoldik. Buni payqagan ziyrak Oybek oldimizga kelib, ahvolimizni so'radi. Hammamiz yer chizib qoldik. Adashmasam, oramizda gapga epchilroq Said Ahmad lo'nda qilib qo'ya qoldi:

Pul yo'q, Oybek aka! "Ie-ie!" – deya OYbek ajablendi va «Mening hisobimdan maishat qilaveringlar!» deb bufetga tayinlab ketdi. Jonsizga jon bormi, degandek shu kechasi shunaqa yaxshi o'tiribmizkn, bilishimizcha, Oybek ikki oygacha maosh ololmabdi, bufetchi bosib qolibdi,

Oybek talantli bolalar shoiri Quدرات Hikmatni yaxshi ko'rardi, Quدرات Hikmat ham bu mehribonlikning qadriga yetar, kima yozsa boshlab, Oybekka o'qib berardi, fikrlarini jon deb qabul qilib, yashnab yurardi. Ana shu vaqtda Quدرات Hikmat yer olib, joy qiladigan bo'lib qoldi. Albatta, joy qilmoqning o'zi bo'lmaydi. Oybekning "Qo'rqmang, joy qilavering", degani zsimda. Keyinchalik unga moddiy yordamlar berdi. Har ko'rganda ko'nglini ko'tarib turdi. O'sha yerda hozir marhum Quدرات Hikmatning farzandlari turadiki, ular Oybekning bu olijanob ko'magini yaxshi biladilar va minnatdorchilik bilan eslab yuradilar.

Oybek buyuk yozuvchi edi, lekin bu buyuklik nafaqat shoir badiiy ijodiyotining balki uning shaxsiy sifatlari bilan ham yuksakka ko'tarildi va boshqa adiblar uchun ham namuna bo'la oldi. Uning bu sifatlarini shoir Abdulla Oripov shunday xotirlaydi, " Hayot va ijod tajribasi hali iihoyatda kam, tirik yozuvchini

ko'rsa hayratga tushadigan men qatori yoshlar uchun 60-yillarda Oybek kabi ulug' zotlar bilan uchrashib muloqotda bo'lish favqulodda baxt edi. Biz axir maktab partasidan tortib dorilfunun auditoriyasida ham o'sha klassik yozuvchilarimiz asarlarini o'qib, savod chiqarganmiz. Studentlik paytlarimizda ko'cha-ko'ydami, yozuvchilar soyuzida, ommaviy yig'inlardami, ulug' adiblarimizni uzoqdan ko'rib, ana G'afur G'ulom, ana Oybek, ana Abdulla Qahhor, deya bnr-birimizni turtib shivirlashar edik. Yotoqxonaga qaytgach, qolganlarga maqtanardik. Qarang, yillar o'tibdi...

Men Oybek domla bilan u kishining xonadonida ikki marta uchrashganman. Ikki safar ham domlaning uylariga o'zlarining yo'qlamlari tufaydi borganman. Ilk dafa Oybek romanlarining muharrirlaridan biri marhum Rustam Komilov boshliq bordim. O'sha yillar men G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida ishlab yurardim. Esimda, nashriyotda Rustam aka bir kun terlab-pishib, «Seni Oybek aka yo'qlayapti»,— deb qoldi. Endigina uch-to'rt narsasi e'lon qilingan, hali o'z qalamiga ishonib-ishonmay yurgan yosh shoirga shu tashrif qanchalik ta'sir qilganini tasaavvur etish qiyin emas.

...Uyga kiraverishdagi zalda, devorga taqab qo'yilgan mo'jaz stol atrofida, domlaning ro'parasida anqayib o'tirgan o'sha daqiqalarimni bnr umr unutmasam kerak. Rustam aka meni tanishtirgach, domla mashaqqatli talaffuz bilan ismimni takrorladi. Qeyii ular Zarifa opa ishtirokida «Navoiy» romanining qayta nashri bilan bog'liq ba'zi tuzatishlarni muqokama qilib olishdi. Men bo'lsam, bu mo'tabar dargohda daf'atan nechun paydo bo'lib qolganimni tushunolmay hayron bo'lib o'tirardim. Shu orada Zarifa opa «Oybek adabiyotimizning o'zidan keyingi qoladigan vakillari, xususan, kenja avlodi bilai qiziqayotganinn, ba'zi birlarimizning mashqlarmizni o'qiganligi, meni ham shu sababdan yo'qlaganinn» jasur bir kayfiyatda aytib qoldi. Domla nihoyatda tiyraklik bilai, ko'pchilik nomdor insonlarda juda kam uchraydigan samimiyat va bolalarcha beg'uborlik bilan opaning gaplarinn tasdiq etdi. O'sha kungi qisqagina suhbat adabiy ijod zahmati

haqida bo'ldi. Esimda, Zarifa opa «Oybek sizlarning yoshingizda kitob o'qishdan boshqa narsani bilmasdi, Navony, Pushkin, Gyote, Dantelarni juda ko'p mutolaa qilardi, kinoga kam kirardi», — deganida butun vujudimdan muzdek ter chiqib ketdi. Men garchand kinoteatrlarga hadeb kiraverishni yoqtirmasam ham bu o'g'itda vaqtingni, yoshligingni behuda o'tkazma, degan pisanda-masalni ilg'agan edim. Oybek domla bu o'g'itni azbaroyi ta'kid bilan tasdiqladi. Men keyinchalik juda uzoq mahal o'sha suhbat ta'sirida yurdim...

Ikkinchi daf'a Oybek xonadoniga yozuvchi do'stim Nosir Foznlov bilai ikkimiz kirib bordik. Domla hovli o'rtasida oddiygina kursida, boshida qorako'l papah, yolg'iz xayol surib o'tirgan ekan. Ichkariga taklif etdi. O'sha stol atrofida davra olib o'tirdik. Nosir aka o'ziga xos chechanlik bilan Oybek domlani gapga solardi. Men bo'lsam, jur'atsiz ahvolda mum tishlaganday jim edim. Favqulodda Oybek domla menga qarab, chap qo'li bilan xitob qilib «O'qi!» — deb qoldi. O'sha kunlari Kavkazdan qaytib, «Armaniston» degan she'rimni yozib tugallagan edim. Nima bo'lsa bo'lar, deb she'rni o'qib yubordim. O'sha uchrashuv tafsilotini Nosir Fozilov «Lenin uchquni» gazetasida keyinchalik yozib ham chiqqan. Xullas, o'sha kuni mening butun umrimga tatirlik hodisa yuz berdi: Oybek domla yozuvchilar soyuziga kirishimga tavsiya yozib berdi.

Oybek ijodi atrofida yuzlab varaq mushohadayu taassurotlar yozish mumkin. Lekin hozir gap domlaning barhayot siymosini xotirlash haqida ketayotgan ekan, men ham u kishi bilan qisqa, lekin bir umr unutilmas uchrashuvlarimni esga oldim. To'g'risini aytsam, o'sha kunlarni eslash hozir men uchun bir tomoidan maroqli bo'lsa, bir jihatdan iztiroblidir. Maroqli tomoni shundaki, Oybekday ulug' inson, ulkan adib bilan yuzma-yuz gaplashganimdan baxtiyorman, iztirobli tomoni shundaki, menkim, bir yosh shoir u zot bilan ro'baro' kelganimda qachondir o'sha uchrashuvlarni xotira qilpb yozarman, deb o'ylabmidim...” .

Oybek buyuk yozuvchi edi, lekin bu buyuklik nafaqat shoir badiiy ijodiyotining balki uning shaxsiy sifatlari bilan ham yuksakka ko'tarildi va boshqa adiblar uchun ham namuna bo'la oldi.

## **1.2. Oybek romanlarida davr talqini masalasi**

XX asr o'zbek adabiyoti tarixida muhim o'rin tutadigan serqirra iste'dod sohiblaridan biri bu Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekdir. Oybek she'r, doston, hikoya, qissa va roman janrlarida samarali ijod qildi. Oybek haqida to'xtalar ekan, akademik Baxtiyor Nazarov "Uning ijodi shu qadar rang-barang va serqirradi, hech mubolag'asiz, bir yozuvchi qalamiga mansub bu darajadagi salmoqli va boy adabiy merosni o'zbek adabiyoti tarixida uchratish qiyin"<sup>19</sup>, - deb yozadi.

Oybek yetuk prozaik edi. Uning qator romanlari, ko'plab qissalari o'zbek nasri rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Yozuvchining nasriy asarlari millat vakillari ruhiyatini aks ettirish jihatidan katta o'rin tutadi. Oybekning prozaik asarlari orasida "Qutlug' qon" romani alohida badiiy ahamiyatga egadir. Adib bu asarni yozishga qatag'on avj olgan mash'um 1937- yillarda kirishgan edi. Zarifaxonim shunday xotirlaydi: "Biz har kuni ertalab hali u, hali bu tanishimizning qamalganini eshitamiz. Kunlar nihoyatda betinch. Hamma ziyolilar "xalq dushmani" deb e'lon qilinib qamalmoqda. Na kunduz halovat bor, na tunda uy- quda. Har daqiqa tashvish, har daqiqa yurak titroqda. Biz bolalarni qo'rg'onda qaynota-qaynonamga qoldirib, ikki temir karavotni bog'ning chetiga ko'chirdik. (Go'yo bizni bog'dan topisholmaydiganday)...

Oybek... butun yoz ichi bog'dan chiqmay ijod qildi. Oybek buyuk iroda egasi edi. Shuning uchun ham u o'ta tahlikali va fojiali kunlarda, g'urbat yutib kechirilgan hayotda "Qutlug' qon"day go'zal va o'lmas bir asarni yaratdi".

Tahlikali vaziyatda bo'lishiga qaramay, roman ilhom og'ushida shiddat bilan yozilgan. Bu haqda adibning sinfdoshi, adabiyotshunos olim Homil Yoqubov ke-

---

<sup>19</sup> Nazarov B.A. Oybek // O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – B. 197.



yinchalik: "Oybek shu qadar qizg'in ilhom bilan qalam tebratdiki, olti oy badali-da milliy ozodlik harakatida mehnatkash xalq ongining munavvarlashishini tasvirlagan, badiiy jihatidan yuksak asar "Qutlug' qon"ni yozib bitirdi", — deb eslaydi. Ehtimol, adib hayotdagi adolatsizlikni, zulm-zo'rlikni ko'rmaslik, undan o'zini chalg'itish uchun butun e'tiborini romanga qaratgandir. Yozuvchi bunga qadar nasrda bor-yo'g'i bir necha hikoyagina yaratgan edi xolos. Lekin hayotni sinchiklab kuzatgan, dunyo adabiy tajribalaridan atroflicha xabardor, atrofida ro'y berayotgan hodisalardan kuchli ta'sirlanadigan qalb egasi Oybek yirik nasriy asar yozishga ruhan tayyor edi.

Yozuvchi qo'lyozma ustida jiddiy ishlab, 1939- yilda asarni yozuvchilar uyushmasida muhokama qildirdi. Muhokama chog'ida ayrim kishilar adibni asarga inqilobchi kuchlarni, rus proletariati vakillarini kiritmaganlikda aybladilar. So'ng yozuvchi romanda shu jihatni kuchaytirishga, unga revolyutsioner Petrov timsolini kiritishga majbur bo'ldi.

"Qutlug' qon" tarixiy romanida o'zbek xalqining yaqin o'tmishda rus bosqinchilari va mahalliy amaldorlar tomonidan ezilganligi, xalqning o'z ahvolini anglab, ezuvchilarga qarshi qo'zg'olishi badiiy ifodasini topgan. Roman asosida 1916- yilda Toshkentda bo'lib o'tgan xalq qo'zg'oloni yotadi. O'sha vaqtda o'n bir yoshli o'smir bo'lgan Oybek bu voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan. Bo'lajak yozuvchi u paytda ko'rganlarining asl mohiyatini anglamagan bo'lsa-da, milliy ozodlik yo'lidagi qo'zg'olon o'smirning ta'sirchan ko'nglidan chuqur o'rin olgandi.

Nazardan qochirmaslik kerakki, Oybek uchun qo'zg'olon va uning sabablari- ni ko'rsatish asosiy maqsad emasdi. Qo'zg'olon to'g'risida birorta ilmiy-tarixiy yo'nalishda maqola yozishi ham mumkin edi. Adib bu davr kishilari ruhiyatini, ularning ko'nglidagi ezgulik va yomonlikka munosabatni, yangilanib borayotgan davr va unda yashashi lozim bo'lgan odamlar tabiati o'rtasidagi muvofiqlik kabi jihatlarni aks ettirmoqchi edi. Shuning uchun ham asar markazida

qo'zg'olon emas, balki Yo'lchi, Gulnor, Shokir ota, Mirzakarimboy, Yormat, Tantiboyvachcha singari kishilar taqdiri turadi. Romanning bosh qahramoni Yo'lchi – mard, halol, oqko'ngil, olijanob yigit. Ma'lumki, inson o'zi qanday bo'lsa, o'zgalar haqida ham shunday o'ylaydi. Shuning uchun ham Yo'lchi shahardagi qarindoshlardan mehr-u muruvvat kutadi. U o'ziga qilinadigan yaxshiliklar evaziga halol mehnati bilan badal to'lay oladi. Buni siz romanda yigitning mehnatdan qo'rqmasligi, ishning ko'zini bilishi tasvirlangan o'rinlardan payqab olasiz. Yo'lchi kunda kovlash, beda o'rish singari kuch talab etiladigan og'ir ishdan ham, mehmonlarga xizmat qilishday yengil yumushlardan ham og'rinmaydi.

Yo'lchining tabiati roman bilan chuqurroq tanishilgani sari yorqinlashib, yuksalib boraveradi. O'zi qanchalik og'ir sharoitda yashayotgan bo'lishiga qaramay, Shokir otaga yordam berishga urinishi, Shoqosim, O'roz, Qoratoy singari nochorlarga qayishib turishi kabi jihatlar uning tabiatidagi olijanoblik, insonga mehr ustuvorligini anglatadi. Yo'lchi qiyinchiliklardan qo'rqmagani, og'irliklardan cho'chimagani uchun ham tubanlikka bormaydi. U qiynalmay yaxshi yashash emas, balki halol va to'g'ri hayot kechirish muhim deb bilgani sabab lozim ko'rmagan ishlarni qilmaslikka o'zida kuch topadi.

Oybek asl inson qanday tabaqadan chiqqan bo'lishiga qaramay, uni yengib bo'lmasligini aks ettiradi. Shuning uchun ham na Mirzakarimboy, na Tantiboyvachcha, na o'ris to'ralar Yo'lchini o'zi to'g'ri deb bilgan yo'ldan qaytara oladi. Chunki yigit puli, mavqei, mansab-u martabasi bo'lmasa ham o'zini ulardan past hisoblamaydi. Ular ko'rsatgan yo'ldan yurishni esa, pastkashlik sanaydi.

Romanda Yo'lchi og'ir-bosiq, sabr-bardoshli, kechirimli yigit sifatida tasvirlanadi. Lekin u faqat chidabgina qolmay, harakat qilish, kurashish ham lozimligini biladi. Shu bois Gulorning boshiga ish tushganda, qo'l qovushtirib o'tirmaydi. Pichoqning tig'iga tik borib bo'lsa-da, sevgilisini qutqaradi. Yigitning rus mirshabboshisi bilan janjalida ham, tog'asiga: "Bundan ko'ra go'ng titganing yaxshi

emasmi, keksa tovuq", – deyishida ham oriyatli, o‘z haq-huquqi uchun kurasha oladigan erkak ekani sezilib turadi. Yo‘lchining zulmga, zo‘rlikka qarshi qo‘zg‘algan xalqqa qo‘shilishi ham, ta- sodifan bu to‘daning yetakchisiga aylanib qolishi ham uning tabiatidagi kurash- chanlik va adolatga tashnalik tuyg‘usidan. Muhimi shundaki, adolatga intilgan odam kuchli bo‘ladi. Hazrati Temurning: "Kuch — adolatda", – degan hikmati bejiz emas. Chunki adolat yo‘lini tutgan odam Haq o‘zi tomonda ekanini biladi, haq hamisha adolatning qaror topishiga yordam qilishiga ishonadi. To‘g‘ri, Yo‘lchi maqsadiga erisholmadi, u bosh qo‘shgan kurash g‘alaba bilan tugamadi. Chunki zulmni, adolatsizlikni, yovuzlikni yengish hech qachon oson bo‘lmagan. Lekin u haq yo‘ldan qaytmagani, vijdoniga, imoniga xiyonat qilmagani, ezguliklarga is- honib, ularni qaror toptirishga intilib yashagani bilan tirikdir.

Oybek “Navoiy” romanini yaratish uchun uzoq yillar ijodiy ish olib bordi. Ko‘pgina she‘rlarida Navoiy obrazini gavdalantiradi. Besh asr oldin xalq dardi, xaqiqat va ishqni kuylagan, yorug‘ kunlar umidi bilan yashagan shoirni ulug‘laydi. (“Haykal oldida”) Shoirning “Navoiy”<sup>20</sup> dostonida esa Navoiyning ko‘nglidagi buyuk orzular, tafakkurini band etgan o‘ylar, shaxsiyatiga xos iliq samimiyat, nozik zavq, ulug‘vor siymosiga xos ruhiy nafislik va mag‘rurlik o‘z ifodasini topadi.

Nodir is‘tedod sohibi, akademik shoir, nosir Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek “Qisqacha tarjimai holim” asarida “Navoiy”<sup>21</sup> romanining yozilish jarayonini xotirlab: “Romanni urush yili, qish faslida sovuq xonada jinchiroqning titroq shu‘lasida yozganman”<sup>22</sup> ,- degan edi. Bolalik yillaridanoq mumtoz adabiyotimizni sevib mutoala qilgan Oybek ijodiy niyatida jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashgan ulug‘ insonparvar shoir siymosini badiiy adabiyotga olib

---

<sup>20</sup> Oybek. Tanlangan asarlar. 4 tomlik. 1 – tom. She‘rlar, poemalar. – Toshkent: Fan, 1957. – B. 273 - 282.

<sup>21</sup> Oybek. Navoiy. Roman. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985.

<sup>22</sup> Oybek. O‘n to‘rtinchi tom. – Toshkent: Fan, 1979, – B. 16.

kirish fikri xalq taqdiri xaqidagi teran mushohadakorlikning natijasi o'laroq tug'ilgan.

Agar Oybek o'zaro urushlar olovida qovurilgan temuriylar davrining mohiyatini aks ettirish, Husayn Boyqaro saltanatidan yorug'lik nurlarini topib zamondoshimiz kishisining nazari bilan qarash, uzoq o'tmish manzaralarini jonli xarakterlar orqali ko'rsatib berishni ko'zlaganligini inobatga olsak, yuqoridagi tasvirlardagi miltillagan shu'lalar ulkan ramziy-majoziy mohiyat ham kasb etadi. Qolaversa, temuriyzodalar taqdiri bir umr Oybek fikr-o'ylarini band etgan, ijodiga ilhom bergan olis moziyning lippillagan shu'lasidir. Zero, adibning ijodiy reja va niyatlarida Sohibqiron Amir Temur haqida tarixiy doston yozish bo'lganligi, ulkan yozuvchiinning uni to'kis amalga oshirishga shafqatsiz o'lim imkon bermaganligi ayon.

Sirtidan qaraganda "Navoiy" romanida ulug' gumanist shoirning tarjimai holi batafsil yoritilganday tuyuladi. Chindan ham romanda 1469- yilning ko'klamidan 1501 -yilning yanvarigacha bo'lgan o'ttiz ikki yillik voqealar qalamga olingan. Navoiy qizg'in madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyatda tasvirlanadi. Donishmand va tadbirkor Navoiy marhamatli va talabchan ustoz, madaniyat-ma'rifat va obodonchilik ishlarining rahnamosi, insof diyonat, adolat himoyachisi, mamlakat va xalq osoyishtaligining posboni sifatida namoyon bo'ladi. Mutafakkir shoir va olim sifatida o'z ichki imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Davlat va idora usulida mustahkam tartib o'rnatish va ayrim islohatlar o'tkazish yo'lida jon kuydiradi. Nizo va adovatlarni bartaraf etishga urinadi. Qalbini ishonch va umid tark etmagan Navoiy tobora tanazzul botqog'iga botib borayotgan Husayn Boyqaro saltanatida kechayotgan voqealar mantig'ini teran anglaydi. Jaholat iskanjasidagi yurt peshvolarining qilmishlaridan ranj-alam, iztirob chekadi. Roman Navoiy fikri va aqidalarining yashovchiligiga da'vat etuvchi optimistik yakunga ega. "Oybek qalamiga mansub roman va qissalar, - deb yozadi Naim Karimov, - qaysi davr hayotidan olingan bo'lmasin, adib shu davr

hayotini mukammal o'rgangan, ayniqsa, tarixiy davr va tarixiy shaxs hayoti bilan birlamchi manbaalar asosida yaqindan tanishgan yozuvchi"<sup>23</sup>.

Roman yozilganidan buyon yarim asrdan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, har bir avlod undan yangi-yangi ma'nolarni kashf etib kelmoqda. Chunki Oybek romanida davr mohiyati va ruhi, tarixning muhim pallasidagi millat kishisining o'zlikni anglash yo'lidagi intilishlarini ifoda etgan. Demak, Navoiy biografiyasi va taqdiri orqali yozuvchi ilg'or g'oyalarni shunchaki tasdiqlash yo'lidan bormaydi. Balki xarakterlarning rivojlanishi orqali tasvirlanayotgan davr mohiyatini ham ochadi. Romanda xalqchilik pafosi qabariq tasvirlangan. Shuningdek, insonparvarlik va real voqelik o'rtasidagi ziddiyatga ham jaholat, nodonlik va zulm bilan gumanizm, adolat, ilm-fan va tafakkurning kurashidan ko'ra bir qadar sinfiy yondashuvning izlari soya tashlagan. Xarakterlarning intilishlarini baholashda kuchlar nisbati ma'lum ma'noda ijtimoiy tabaqalarga moddiyuncha yondashuv asosida hal etiladi.

Oybekning ulug'vorlik haqidagi estetik ideali ma'lum darajada mutafakkir olimning guruhlar ustidan oddiy xalqqa tayanib g'alaba qilishdek primitiv mantiqqa asoslanadi.

Shubhasiz, Navoiy ulug'vorlik va mardonalikni o'zida mujassamlashtirgan nodir shaxs. Biroq bu hol uni o'z g'azabini bosolmay qoladigan jangari va jaydari odam sifatida tushunishga asos bo'la olmaydi. O'z suhbatdoshlari ustidan kinoyali va zardali kulib: "ajdarnafs", "darranda", "gazanda", "bo'rilar", "itlar", "chirkin maxluqlar", "iflos pashshalar" deb oshkora qayirib tashlovchi, "johillarning qo'llarini kesmoq zarur" deguvchi kurashchiga aylanadi. U o'z oqilona fikri bilan voqealar oqimini osongina izga solib yuboraveradi. Sulton Husayn go'yo uning yetovidagina harakat qiluvchi, bazm va mayho'rlikka berilgan, mustaqil fikrdan mahrum kishidek taasurot uyg'otadi. Navoiyning bu qadar keskirliги oldida Majididdin va uning tarafdorlari qo'rquvdan titrab, tillari kalomga kelmay qoladi. Bunday sxematizm ta'sirida Navoiy shaxsiyatidagi mutasavvuf shoirlik va

---

<sup>23</sup> Karimov N. Oybek. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-jild. – Toshkent: 2003. – B. 476.

shayxlikka hos bosiqlik, vazminlik o‘rnini tahdid va siyosat, xaqorat va dag‘dag‘a egallaydi. U podshoh xuzurida xukmdorning o‘jarligini sindirish uchun shunday shiddat, jasurona ohang bilan so‘zlaydiki, xukmdor ham har qanday e’tirozdan ojiz qoladi. SHoirning bu qadar ishbilarmon va sohibtadbir kishiga aylanishi ham real mantiqqa bir qadar muvofiq emasdek tuyuladi. Bunday o‘rinlarda sho‘ro adabiyotining mexnat kishisini ulug‘lashga moyilligi ta’siri ko‘zga tashlanadi.

“*Navoiy*” romani mafkuraviy tazyiqlar adabiy siyosatga aylangan davrda yaratilgan asardir. Binobarin, Oybek o‘zi tilamagan holda shohni “*qoplon*”ga uning atrofidagi amaldorlarni “*it*”ga qiyoslashga majbur edi. Agar jiddiy e’tibor berilsa, romanning aksariyat qahramonlari ulug‘ bir taxlika va qo‘rquv saltanatining zalvori ostida harakat qiladilar. Arslonquldan Dildorga xabar keltirgan folbin kampir atrofga alanglab sekingina so‘zlaydi. Hayajonini bosolmagan Dildorni: “Hoy, sekin gapir!... Jinni bo‘ldingmi? Qerdasan?” - deya ogohlantirar ekan, darichani yopib qo‘yib, shivirlagan holda so‘zlaydi. Hatto vahimaga tushib, zinhor birovga og‘iz ochma, - deya ta’kidlaydi. Dildorning: “Xat bermadimi sizga?” - degan so‘rovga: “Til zindonga sudraydi, xat dorga eltadi, bolam!” - deya bir qadar o‘kinish va jafoni bo‘yniga olgan kishiga xos vazminlik bilan javob beradi. (228 b.)

Dildorga g‘amg‘o‘rlik qilish ilinjida Sultonmurod To‘g‘onbekning dargohiga bosh urib kelganida Aloiddin Mashhadiy, mavlono SHahobiddin va boshqa amaldorlar davrasida o‘tirgan To‘rg‘onbekday odam ham yurt ulug‘larining pinjiga qanchalik kirib olgan bo‘lishiga qaramasdan, dabdurustdan aniq javob ayta olmaydi. Sun’iy qiyofaga kirib, sovuq va rasmiy muomala qiladi. SHohning qonuni ustivorligi, Shayxulisomning adolati to‘g‘risida so‘zlashga majbur bo‘ladi. U o‘zining muhtarib ahvolini tan olishga, ayni vaziyatda boshqacha yo‘l tuta olmasligini tushintirishga majbur bo‘ladi. (245-246 b.) Xo‘ja Afzal Navoiy bilan suhbatda: “Hirotdagi mash‘um hodisalarni aytishdan til ham

cho‘chiydi”, - deydi chuqur xo‘rsinib. (275 b.) Eshik og‘a Boboali Haydarni muomalada “tilga ehtiyot bo‘lish”likka chaqiradi (327 b.)

Oybek “Navoiy” romaniga bunday o‘rinlarni bejiz kiritmagan, albatta. U o‘z davrining ruhiga ham ishoralar tili bilan urg‘u bermoqni tilagan bo‘lsa ne ajab.

Darhaqiqat, Oybek qalbidagi po‘rtanalar roman matniga ko‘chmasligi mumkin emas. Zero ijodkorning mudom uyg‘oq qalbi olam hodisalarini idrok va his etadi. XV asr voqea-hodisalarini badiiy umumlashtirishda adib qalbida musiqiy bir ohang oqqanki, Oybek tomonidan his etilgan bu holat romanga o‘ziga xos ichki harorat bag‘ishlaydi. Kitobxon romanda goh balandlab, goh pastlab jo‘shqin va sokin ohanglarda taralayotgan hazin kuyni xis etadi. Navoiyga xos ulug‘vorlik va mag‘rurlik, qudrat, iroda, matonat ruhi unda mamnunlik va iftixor hissini uyg‘otadi.

Romanda hayot sinovlarini matonat bilan yengib o‘zligini anglagan qahramonlar holati jonli tasvirlanadi. Ular orasida Navoiy xarakter sifatida o‘z erkinligi bilan alohida ajralib turadi. Aqidalarida sobit, istiqbolga komil ishonch bilan boquvchi qudratli ruh kishisining ezgulik yo‘lidagi harakatlari kitobxon qalbiga dalda beribgina qolmay, yaratuvchanlik va ijodkorlik ruhini ham tug‘diradi. Romandagi ritm qismlar uzviyligini ta‘minlaydi. Ohangning goh avj pardalarda, goh sokin, goh tantanavor, gohida esa ma‘yus oqishi surat va siyrat jilvalaridagi qalb tug‘yonlari, isyon va itoat, qat‘iyatlilik hamda bandasining ojizligi ruhini ifodalaydi. Oybekning Olamu Odam yaxlitligini namoyon etishida romandagi yagona ovoz ohanglarning o‘zaro uyg‘unligi kitobxonning butun borlig‘ini qamrab oladi.

Yozuvchi romanda sodir bo‘layotgan jarayonlarning manbalarini ko‘rsatish orqali qahramon harakterining shakllanishi sabablarini ochishga muvaffaq bo‘ladi. Aksariyat obrazlarning intilish va kechinmalar olamini ishonarli tahlil qiladi. Boshqacharoq ayganda, syujet qurishning retrospektiv usulidan imkon qadar foydalanishga urinadi. Qahramon ichki dunyosini taftish qilishda ularning o‘y-

xayollari, iztirob va kechinmalari, o'z qilmishlarini tahlildan o'tkazishlaridan foydalangan holda borliqni keng ko'lamda tasvirlash imkoniga ega bo'ladi. Afsuski Oybek ko'proq e'tiborni personajlarning bevosita ob'ektiv faoliyatiga qaratadi. Chunki "*Navoiy*" romanida hayot hodisalari zamonda sababiy ketma-ketlikda joylashtirish tamoyili asosida yoritilgan. Yozuvchi hamisha ham inson ruhiyatidagi jarayonlar, uning qalb dealektikasini nazarda tutadi deyish qiyin. Bu hol keng ko'lamdagi epik voqealarning ifodasida lirik haroratning susayishiga olib keladi.

Biroq bunga asoslanib "*Navoiy*" romanida faqat hayotiy voqealar tasvirigina berilgan ekan, degan xulosaga kelmaslik lozim. Romanda voqealarning qahramonlar ongi va qalbiga ta'siri, xotira va tasavvurlar, shaxsning jamiyat bilan chambarchas aloqadorligini ko'rsatish maqsadida Oybek tasvirda tashqi jarayonarning inson ruhiyatiga ta'sirini ko'rsatish yo'lidan boradi. SHu boisdan ham romandagi aksariyat qahramonlarning qalb torlari ijtimoiy jarayonlarning kuchli ta'siri ostida tebranishiga ahamiyat qaratiladi.

Oybek iqtidori, himmat va g'ayrati, ilhom bulog'ining mahsuli bo'lgan "*Navoiy*" axloqiy-siyosiy, ijtimoiy-falsafiy romani adib xayolining ko'rkam chamanzoridan terilgan go'zal guldastadir. Mamlakat hayotida to'xtovsiz siyosiy zilzilalar davom etayotgan bir davrda imonli va vijdonli adib sifatida Oybek el, yurt taqdiriga befarq qaray olmas edi. Uning fikri davr va saltanatlar osha kezib, temuriyzodalar taqdiri misolida tubsiz o'p'qon yoqasiga kelib qolgan imperiyani muqarrar halokatdan ogoh etibgina qolmay, istiqbolda boshlanajak mash'um bo'rondan ham darak berdi. Insoniyatning ulug' falokatlar qarshisida takror qolmasliklari uchun bani odam farzandlari bir-birlariga o'zaro muhabbat rishtalari bilan bog'lanmoqlari, yurtda adolat barqaror bo'lishini tilagan Oybekning bedor ruhidan taralgan hayotbaxsh nurlar basirat ko'zini ochuvchi kalit vazifasini o'taydi.



Oybek orzu qilgan chinakam erkinlik shamollari yurtimizda esib adibning muborak poyqadamlari gardidan bo'sa olayotganidan tabarruk yuzinchi bahorini qarshilayotgan donishmand adibning ruhlari shod bo'lsa ajab emas.

“*Navoiy*” romani razolatga qarshi shafqatsizlik bilan javob berishni inkor etuvchi, aql va tafakkur ustunligini ulug'lovchi zamona zulmi, ta'qib va qiynoqlari, adolatsizliklarini ayblovchi hukmnamogina emas. Hasadgo'ylar bilan kurashishni o'ziga noloyiq deb bilgan, insoniy g'ururi va qadri uchun nuqson deb hisoblangan, bo'ysunmas qalbidagi yuksak tuyg'ularning erkin zamona zanjirband eta olmagan ulug' insonning kelajak nasllarga qoldirgan munosib tuhfasidir.

Ko'rinadiki, Navoiy obrazida adolat va buyuk insonparvarlik g'oyalari mujassam. U amalga oshirayotgan har bir ishidan el-yurt manfaati, mamlakat tinchligi va xalq osoyishtaligini ko'zlaydi. Ulug' mutafakkir o'z dono maslahatlari bilan shohga to'g'ri yo'l-yo'riqlar ko'rsatgan bo'lsa, amaliy faoliyatida insonparvarlik g'oyalarini amalga oshirgan. Oybek “*Navoiy*” romanida ulug' mutafakkir xarakterining shu jihatlarini mahorat bilan tasvirlay olgan.

## **II BOB. “NAVOIY” ROMANINI O‘RGANISHDA TA‘LIM TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI**

### **2.1. “Navoiy” romani tahlilida tarixiy-qiyosiy usulning ahamiyati**

Oybekning “Navoiy” (1944) romani o‘zbek adabiyoti tarixida faxrli o‘rin tutadi. Yuzaki qaraganda, Oybek urush yillarida uzoq o‘tmish mavzusida “Navoiy” romanini yaratish bilan o‘sha jangovar davr talablaridan uzoqlashganday ko‘rinadi. Aslida esa bunday emas. Chunki Oybek o‘tmish voqeligini aks ettirish, buyuk tarixiy shaxs Alisher Navoiy obrazini yaratish, uning Vatanga va xalqqa bo‘lgan cheksiz muhabbatini tasvirlash asosida vatanparvarlik, insonparvarlik, qahramonlik va yomonlikka nafratni targ‘ib qildiki, urush davri talablariga to‘la mos kelar edi.

« Navoiy» tarixiy-biografik roman janrining nodir namunasidir. Roman voqeasi 18 yoshli yigit – Alisher Navoiyning Samarqanddan Hirotga qaytishi bilan boshlanadi va Navoiy hayotining eng samarali va eng sarmazmun davrlarini qamrab oladi. Asar voqeasi Navoiyning o‘limini aks ettirish bilan tugaydi. Demak, asarda Navoiy tarjimai holining asosiy bosqichlari hayot haqiqatiga mos holda yorqin tasvirlangan. Asarda Navoiyning olijanob fazilatlari, ajoyib xislatlari, Vatan, xalq va adabiyot oldidagi buyuk xizmatlari birin-ketin ochila boradi. Navoiy obrazi romanda el va xalq uchun qayg‘uruvchi, yurtning baxt-saodati haqida jon kuydiruvchi, adolat va haqqoniyat uchun astoydil intiluvchi ulug‘ siymo sifatida namoyon bo‘ladi. Navoiy o‘z do‘stlariga nasihat qilibshunday deydi:

“...har nechuk falokatni daf etmoqqa g 'ayrat qilmoq kerak... Muborak Vatanning, el-ulusning salomatligi uchun fidokorlik ko 'rsatmoq vazifamizdir.

Sizdan tilagim shuki, bir-birimizga, davlatga, yurtga vafo, sadoqat, muhabbat bilan bog‘lanaylik. Vafo va muhabbat – ulug‘ qudratdir”,– deydi.

Oybek romanda buyuk shoir obrazini yaratishda Navoiyning turkiy til va adabiyotga bo‘lgan munosabati tasviridan ham o‘rinli foydalangan. Romanda haqqoniy tasvirlanganidek, Navoiy o‘z ona tilisi – turkiyni dil-dildan sevadi. Oybek romanda Alisher Navoiy boshqa tillarni hech bir kamsitmaganligini to‘g‘ri ta’kidlaydi. Romanda Navoiy shoir Binoiyga e’tiroz bildirib:

“Biz fors tilining qudrat va ahamiyatini, u tildagi asarlarning husn va salobatini hech vaqt inkor etmadik. Togo’daklikdan boshlab fors tilida ham qalam surmoqdamiz. Ammo tilimizning afzalligi biz uchun ulug‘ haqiqatdir. Biz go’daklik bu haqiqatning ishqini ko‘nglimizga jo qilganmiz, o‘lganimizcha bu ishqni saqlaymiz! Shaharlarni, qishloqlarni, sahro va tog larni to‘ldirgan el-ulusimiz, urug'-aymog‘imiz bor, uning o‘z zavqi, fahmi-idroki bor. Biz elimizning zavqini, tabiatini nazarda tutib, uning o‘z tilida qalam suraylikki, uning ko‘ngli fikr gullari bilan to‘lsin. Turkona soz bilan tarannum etaylikki, elning yuragi mavjga kelsin. So‘z gulshanidan o‘zga ellar qatorida bizning elimiz ham bahramand bo‘lsin”, – deydi.

Oybek romanda Jomiy bilan Navoiyni bir-biriga ustoz va shogird ekanini maftun bo‘lib tasvirlaydi. Umr o‘rtasidagi oddiy insoniy munosabatlarni ham samimiyat bilan ifodalangan. Navoiy Marvga jo‘nash oldidan xayrlashish niyatida Jomiy huzuriga tashrif buyuradi. “Jomiy unihar vaqtdagi singari shavq bilan qarshiladi. Navoiy o‘tirgan hamon ulug‘ chol (Jomiy) muloyim tabassum qilib, o‘ziga xos mayinlik bilan: «Endi ko‘zlarimizni Marv tomonga intizor qilurmisiz?» – dedi.

“Navoiy” romanida Husayn Boyqaro, Xadicha begim, Mo‘min Mirzo, Darveshali, Binoiy, Majididdin singari tarixiy shaxslar obrazi ham berilgan. g‘oyat ustalik bilan yaratilgan bu obrazlar bosh qahramon Navoiy xarakterini ochishda muhim o‘rin tutadilar. Chunki adib bu obrazlar vositasida o‘sha davr hayotini

haqqoniy ko'rsatgan. Asarda podshoh Husayn Boyqaroning o'z o'g'li Badiuzzamonga qarshi jang qilishi, nabirasi Mo'min Mirzoni qatl etish haqida farmon berishi, shahzodalarning bir-biriga qarshi qilich qayrashi, bir-biriga xiyonat qilishi singari fojiali voqealar, ziddiyatlar g'oyat ta'sirli qilib ifodalangan. Romanda tarixiy shaxs obrazlari bilan birga, Sul-tonmurod, Dildor, Arslonqul, Zayniddin, To'g'onbek singari badiiy to'qima obrazlarning ham o'ziga munosib o'rni bor. Oybek bu obrazlar orqali o'sha davrdagi ma'lum ijtimoiy guruhlar hayotini umumlashtirib ko'rsatib bergan. Shuningdek, bu obrazlar vositasida bosh qahramon Navoiy xarakterini, uning fazilatlarini yanada yorqinroq ochgan.

“Navoiy” romanida XV asr hayoti uchun tipik bo'lgan xilma-xil voqea-hodisalar aks ettirilgan, rang-barang obrazlar yaratilgan. Hayot haqiqati ustalik bilan badiiy haqiqatga aylantirilgan. Bunda yozuvchi obraz yaratishda psixologik tahlildan, til imkoniyatlaridan, jumladan, har bir personajning o'ziga xos fe'l-atvorini va individual tilini berish san'atidan unumli foydalangan. Shunga ko'ra romandagi barcha obrazlar o'z xarakteri va individual tili e'tibori bilan bir-biridan ajralib, o'zaro farqlanib turadi.

Ma'lumki, badiiy asarda personaj nutqi singari muallif nutqi ham aniq va obrazli bo'lishi, milliy tarovat bilan bezangan, davr ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi shart. Asarda qaysi davr hayoti tasvirlangan bo'lsa, o'sha davr kishilari nutqidagi til xususiyatlari ham aks etishi kerak. Bu jihatdan romanning tili ibratlidir. Oybekshunos olim Homil Yoqubov to'g'ri qayd qilganidek: «Navoiy» romani o'zbek tarixiy romanchiligi tilining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Asar tili o'tmish davrning jonli tilini yaratish namunalaridan biri bo'lib qoldi, unda besh yuz yil avval yashagan tarixiy qahramonlarning tili hozirgi kitobxonlarga tushunarli qilib qayta tiriltirildi. Oybek roman tili oldida turgan bu murakkab vazifani to'g'ri hal qildi. Yozuvchining muvaffaqiyati shunda bo'ldiki, u qahramonlar nutqi bilan muallif nutqi o'rtasiga keskin chegara qo'y-madi va tarixiy hamda zamonaviy nutqni bir-biriga uyg'unlashtirdi. U shaxslarning so'zlashuvida

Navoiy asridagi adabiy til koloritini saqlash, ayrim grammatik va morfologik formalarni stillashtirish bilan birga, ularni o‘zbek adabiy tilining hozirgi taraqqiy bosqichiga xos asosiy qoidalarga bo‘ysundirdi, mumkin qadar hozirgi zamon kitobxonining tushunishiga yaqinlashtirdi. Ammo shunisi borki, muallif tilining personajlar tilidan tamoman uzilib qolishi va hozirgi kunning lug‘at tarkibidagi yangiliklar bilan boyitilishi mumkin emas edi. Shuning uchun yozuvchi avtor tili bilan personajlar tili o‘rtasidagi stilistik birlikni saqlashga harakat qildi, arabcha, tojikcha va hozirgi kunda iste‘moldan chiqib ketgan arxaik so‘zlarni o‘rinli ishlatdi»

Oybekning “Qutlug‘ qon”, “Navoiy”, “Ulug‘ yo‘l” romanlarida xalqimizning o‘tmish hayoti tasvirlangan bo‘lsa, “Oltin vodiydin shabadalar” (1950), “Quyosh qoraymas” (1959) romanlarida zamonaviy voqelik aks ettirilgan Romanda personajlar tili singari muallif nutqi ham katta mahorat bilan ishlangan. Asarda Oybek jonli xalq tili boyliklari: xalq maqollari, hikmatli so‘zlar va obrazli iboralardan, shuningdek, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag‘a, majoz kabi tasviriy vositalardan unumli foydalangan. Oybek o‘tmish voqeligini aks ettirish, buyuk tarixiy shaxs Alisher Navoiy obrazini yaratish, uning Vatanga va xalqqa bo‘lgan cheksiz muhabbatini tasvirlash asosida vatanparvarlik, insonparvarlik, qahramonlik va yomonlikka nafratni targ‘ib qildiki, urush davri talablariga to‘la mos kelar edi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta‘biri bilan aytganda Navoiy: “Buyuk gumanist shoirimiz faoliyati va ijodiga teran nazar tashlasak, uning dahosi ijtimoiy hayotning, mafkura va madaniyatning barcha sohalarini qamrab olganidan hayratga tushamiz”<sup>24</sup>. Oybek ham Navoiy ijodiga shunday yondashadi. Adib shunday deydi: “Navoiy she‘riyati va Navoiy obrazi hamisha kuchli bir quyosh kabi ko‘nglimni tortar edi. O‘z asarlarimda shoir Navoiy obrazi

---

Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти Ислон Каримовнинг Навоий шахарида  
Алишер Навоий ёдгорлик мажмуининг очилишига багишланган тантанали маросимда  
сўзлаган нутки // "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали, 2001, 5-сон, – Б.4.

yaratishga zo'r mayl, orzu, istagim bor edi. Lekin tarixga ko'z tashlasam, Navoiy gigant, buyuk bir siymo holida qarshimda turar edi. Yoshligimdan beri Navoiyning o'lmas, adabiy she'rlarini sevib o'qir edim, uning jozibali g'azallari borgan sari ko'nglimga singib bordi, shakl va mazmunlari yuragimni mast va maftun etdi".<sup>25</sup> Yozuvchi Navoiy ruhiyatiga kira oldi uni o'z asarida aks ettira oldi. Adib "Navoiy" romani uchun davlat mukofotini oldi. Bu romanini yozishdan oldin Oybek Navoiy haqida yiqqan sanadlari nihoyatda ko'p bo'lgan. Oybek uchun ikki narsa muhim bo'lgan. Biri "Qutlug' qon" romanida o'z tasvirini topgan o'zbek xalqining XX asrdagi tarixiy taqdiri bilan bog'liq mavzudir. Ikkinchisi esa Navoiy va, umuman, temuriylarning o'zbek xalqi taqdiridagi roli

Oybek romanda buyuk shoir obrazini yaratishda Navoiyning turkiy til va adabiyotga bo'lgan munosabati tasviridan ham o'rinli foydalangan. Romanda haqqoniy tasvirlanganidek, Navoiy o'z ona tilisi – turkiyni dil-dildan sevadi. Asarda Navoiy obraziga xos xususiyatlar sofdillik, qat'iyat va oliyjanoblik kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi.

Navoiy obrazida biz eng ulug' fazilatlarning ko'ringanini, uning vatanparvarligini, doima xalq manfaatini o'ylaganini asarning barcha o'rinlarida ko'rishimiz mumkin. Jumladan, uning ona vatan uchun, uning obodonligi yo'lida qilgan zahmatli mehnatlari tahsinga loyiqdir.

Navoiy o'sha davr Hirotda ro'y berib turgan salbiy holatlarning oldini olishga urinadi, Husayn Bayqaroni adolatga chorlaydi. Badiuzzamon va Husayn Bayqaro munosabatlarini yaxshilashga harakat qiladi. Zamona notinchliklariga barham berish uchun yelib- yuguradi. Hamisha o'z ona yurtiga vafodor farzand bo'lishga harakat qilgan.

Majididdin boshliq fitnachilarning so'zlariga quloq solib, Husayn Bayqaro Alisher Navoiyni Astrobodga hokim qilib, Hirotdan uzoqlashtiradi. O'sha paytlarda Navoiy Vatan sog'inchida o'rtanadi va quyidagi ruboiysini

---

<sup>25</sup>Oybek. "Navoiy" romani. – B-5.

yozadi.

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,  
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish,  
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa  
Bulbulga tikondek oshiyon bo'lmas emish.

Navoiy romanda chinakam vatanparvar kishi sifatida tasvirlangan. Oybek asarda haqqoniy hayotni tasvirlashga harakat qilgani, uning tarixiy haqiqatni to'liq o'zlashtirib olganini e'tirof etish joizdir.

Navoiy xalq obodonchiligi yo'lida tinimsiz mehnat qiladi. Bosh muhrdor va vazir bo'lgan paytlari ariqlar qazdirib, bog'lar barpo qildirib, binolar qurilishiga sabab bo'ladi.

Asarda Navoiyning muhabbati berilmagan, Ammo Navoiy bir-biriga muhabbatlari cheksiz bo'lgan Arslonqul va Dildorni fojialardan saqlab qolib, muhabbatlariga erishishlariga ko'maklashadi. Garchand asarda bu qahramonlar to'qima obraz sifatida berilsa ham, tarixda Navoiy bunday ulug' ishlarni qilganligiga shubha yo'q.

Navoiy o'zining mashhur asarlari bilan olamga tanilgan. Oybek mahorat bilan shoirning ijod jarayonini ham ko'rsata olgan. Navoiyning "Xamsa" ni yozish jarayonidagi mashaqqatlarini, shuningdek, boshqa asarlarini ham qay tarzda dunyo yuzini ko'rganini tasvirlashga harakat qilgan.

Navoiyning dinga bo'lgan munosabati ham asarda namoyon bo'ladi. Ulug' mutafakkirning hajga borish orzusi asarda shu qadar go'zal ifoda etilganki, o'qib hayron bo'lasan, kishi, ammo bu orzu Navoiy uchun armon bo'lib qoladi.

Asarda Oybek Navoiy obrazi orqali chinakam vatanparvarlikni ko'rsatib bergan. Shuningdek, o'sha davr Hirot va Hurosonda temuriy shahzoda Husayn Bayqaro zamonida ro'y bergan adolatsizliklar, ota va bola o'rtasidagi ziddiyatlar, Mo'min mirzoning o'ldirilishi, toju taxt uchun

kurashlar, xalq obodonchiligi yoʻlidagi tinimsiz izlanishlar yaqqol tasvir etilgan. Navoiy oʻzining insoniy fazilatlarini ulugʻlashi, qadriyatlarga sodiqligi, doimo yurt uchun qaygʻuraganligi tahsinga loyiqdir.

Shu oʻrinda Navoiyga hamfikr boʻlgan obrazlarni ham aytib oʻtishimiz darkor. Bular: Sultonmurod , Zayniddin , Arslonqul, Dildor, Moʻmin Mirzo, Jomiy kabi obrazlardir.

Navoiyning ulugʻ gʻoyalariga qarshi chiqib, unga hasad qilgan salbiy obrazlar sifatida Majididdin, Toʻgʻonbek, Nizomiddin kabi asar qahramonlarni aytishimiz mumkin.

Navoiy doimo oʻz ona tili turkiy til bilan faxrlanib yuradi , uning ravnaqi uchun hamisha izlanishlar qilganligi ham romanda adib eʼtiboridan chetda qolmagan. Navoiyning turkiy tilda birinchi boʻlib “Xamsa” yaratganligi buning yaqqol dalili boʻla oladi. Romanni oʻqigan kitobxon tarixiy haqiqatning badiiy toʻqima obrazlar bilan uygʻunlashib yaxlitlik kasb etganiga guvoh boʻladi.

Navoiyning qalb soʻzlarini hayotining dasturiga aylantirgan, uni chuqur anglab yetgan vijdonli sanʼatkorlarimiz koʻplab topiladi. Ular adabiyotni anglay olgan insonlardir. Demak,Navoiyni anglash adabiyotni anglash demakdir. Oybek mana shunday, Navoiyni anglay olgan sanʼatkorlardan biridir. Uning buyukligi shundaki, u nafaqat Navoiyni anglay oldi, balki boshqalarga ham bu siymoni anglatib, qalblariga joyladi. Oybek Navoiyni ham ilmiy, ham badiiy jihatdan shu qadar mahorat va bilim bilan talqin etdiki, natijada biz uni hech ikkilanmay “Navoiyni qayta kashf etgan adib” deyishimiz mumkin.

Maʼlumki, Ikkinchi jaho urushi maydonlarida, noilojlik orqasida dushman qoʻliga asr tushgan jangchilar sotqin deb hisoblangan. Ular dushman changalidan ozod qilinishlari bilanoq mamlakat ichkarisidagi lagerlarga joʻnatilgan. Peshonasida shunday koʻrgulik yozilgan bir guruh oʻzbek jangchilarining baxtiga ularning birida Oybekning “Navoiy” romani boʻlgan. Shu asr, unda tasvir etilgan



voqealar, unda olg`a surilgan hikmatli jihatlar bu baxtsiz jangchilarning it azobida kechgan hayotlarini yorituvchi, ulardan o`n besh kuni yorug` bo`lgan “adolatli erta”ga umid uyg`otuvchi birdan bir dono malahatchi, najot yo`lini ko`rsatuvchi qiblanoma bo`lgan. Bu asar o`z vaqtida ko`plab tillarga tarjima qilingan. Turli millatlarga mansub kitobxonlar ommasi asarni qizg`in va samimiy kutib oldi. Ulardan biri-arman o`quvchisi esa, “Nazarimda, siz katta muhabbat bilan tasvirlaganingiz Navoiy siymosiga ruhan yaqin bo`lsangiz kerak. Aks holda, buyuk o`zbek shoiri siymosini bu qadar yorqin va go`zal yarata olmagan bo`lardingiz”, deb yozgan edi. Kitobxonning bu so`zlarida katta haqiqat bor. Demak, Oybekning Navoiy ijodiga bag`ishlangan ilmiy asarlari adabiyotshunosligimizning katta boyligi bo`lsa, endi u o`z badiiyati orqali Navoiy siymosini jahon sahnasiga olib chiqdi, deyishimiz mumkin.

Adib Alisher Navoiy hazratlarini har bir o`zbekning dil-diliga yaqinlashtirishga qaratilgan ijodiy mehnatini amalga oshirdiki, bu uning buyuk jasoratidir. Bu jasorat mevalarini o`rganishga, tadqiq qilishga harakat qilgan tadqiqotchi, targ`ibotchilar ko`plab topiladi. Har bir yozuvchining yagona, nuri bitmas bir ustoz bo`ladi. Shu ustozdan olingan quvvat, adadsiz mehr, uning seyr sirlarini izlashga, o`rganishga chorlaydi. Oybek uchun Navoiy yana shunday ustoz bo`ladi. Maqolalardan birida yozilishicha Oybek Navoiy ijodini 1928 – yillidan o`rgana boshlagan. Bu sohiy mutafakkir haqidagi so`nggi maqtasi esa 1968-yilda bosilib chiqdi. Ana shu 40-yil oralig`ida Oybek tomonidan yozilgan maqolalar Navoiyshunoslik faning katta boyligini tashkil etadi.

Prof. E.E Berintelsdek sharq klassik adabiyotining bilimdoni maqolalaridan birida “Agar men Oybek bilan tanishmaganimda Navoiy haqidagi, fikrlaridan bahramand bo`lmaganimda bu ulug` shoir haqidagi tadqiqotlarimizni yaratishim amrimahol edi” degani ma`lum.

Darxaqiqat Oybekning merosi ulkandir. Uning tinimsiz ilmiy izlanishlari va badiiy tadakkurining sintezi o`laroq “Navoiy” romani maydonga keldi.

Romanda Temuriylar saltanatining Husayn Bayqaro hukmronlik qilgan davrini nafaqat badiiy balki chuqur ilmiy ruh bilan yoritgani singari, ilmiy tadqiqotlarida ham Oybek ilhom arg'umog'ining jilovini erkin qo'yadi va tadqiqotlarida ko'pdan ko'p yorqin badiiy mushohadalar bilan bezaydi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki Oybekning Navoiy haqidagi roman va dostonlariga ilmiy ishlaridagi fikrlar va hatto jumlar quyosh nuridek erkin va tabiiy singishib ketadilar.

Bu aksincha badiiy asarlaridagi juda ko'p tugunlar, jarayonlar, dastavval ilmiy ishlar doshqozonida toblanadi, ishlov beriladi va shundan so'ngina badiiy asar sahifalaridagi uzukka ko'z bo'lib tushadi.

Oybek tadqiqotlariga va shu tadqiqotlar uchun olib brogan tayyorgarlik variantlariga nazar tashlasak muallif faqat temuriylar davri adabiyotiva Navoiy ijodigagina oid materiallar yig'ish bilan kifoyalanmaganigini ko'ramiz. Ularda adabiy hayot bilan bir qatorda umuman tarix, iqtisod, etnografiya, davlatni boshqarish sistemasi, sug'orish va irrigatsiya, xalq hayoti shaxar tarixi va relyefi, ijtimoiy munosobatlar va hokozolarga oidmateriallar alohida o'rin ishg'ol qiladi. Bularning barchasi Oybekning doimo va muttasil ravishda juda katta niyatlar bilan yashaganini, ular adibi va olim Oybekning Navoiydan tashqari Beruniy, Temur, Bobur, Mashrab haqida yaratilgan va yaratilishi niyat qilib qo'yilgan asarlarga tayyorgarliklar va shular davri hayoti, ijodi haqidagi ilmiy ishlarni ko`rinishi sifatida baholana oladi. Oybek buyuk kishilarga hos bo'lgan tabiatan va tug'ma kamtar inson edi. U Navoiy haqida o'z vaqtida (30-yillarda) turli hajmlardagi katta kichik tadqiqotlar yozib bitirgan. Bu uning ijodiyotining bir qismini tashkil qiladi holos.

Oybek tadqiqotlari Navoiy hayoti va ijodiyotining deyarli barcha masalalarini qamrab oladi. U Navoiyning tarjimai holi, g'azaliyoti, dostonlari va ilmiy faoliyati ijodining halqchiligi va gumanizmi, mahorati va tili, umuman davra

va adabiy muhiti singari masallar haqida tadqiqotlar yaratdi 40-yillar oxirida u Navoiy ijodining katta bilimdoni sifatida keng tanildi.

Demak, Oybek ta'kidicha Navoiyning xudoni bir xil qabul qilishi, ya'ni xudoni jahonning immonenti deb bilishi nuqtasida Navoiynmng so'fizmgga munosabati va so'fizmning Navoiyga ta'siri nomoyon bo'ladi. Yuqoridagi bir masala xususidagi ikki xil qarashning, ziddiyatning sababini Oybek Navoiy yashab ijod etgan davrning ziddiyatlari bilan, shoirning o'z davri farzandi ekanligi bilan izohlaydi. Ammo Oybek kurashicha bu qarama-qarshilikdan qat'iy nazar "xudo va dunyoning mohiyati" masalasini Navoiy, asosan, so'fiyona ta'limot bo'yicha tushinga: "go'yo xudo allaqanday adabiy, yetuk go'zal bir mohiyatdir. Dunyo bir vaqtlar xudoning o'z ichida sukunat vazifasida turgan, ya'ni dunyo, ta'bir joiz bo'lsa xudoning mazmunini tashkil etgan bo'ladi. So'ngra dunyo cheksiz va hadsiz "oyina"lar sifatida zohir bo'lib, xudoning go'zalligini o'zida aks ettiradi. Lekin, masala shundaki, Navoiyda xudo bilan dunyo ayrim-ayrim hollarda mavjud emasdir. "Navoiyning anglashicha, xudo-dunyodir. Shunday qilib, Navoiyda dunyoning xorijida turgan xudo tushunchasi yo'qoladi, shuning bilan xudo va dunyo dializmi bartaraf qilinadi. Bu pantestik bir qarashdir."

Navoiyning yuqoridagi qarashlari XVII asr G'arb faylasufi Spinozaning xuddi shu masala xususidagi qarashlariga juda yaqindir degan xulosaga keladi. Oybek "Dunyoda mavjud bo'lgan barcha narsa xudoda mavjuddir va xudosiz hyech nimaning na mavjud bo'lishi, na fikrlanishi mumkin emas", deb yozgan edi Spinoza.

XV asr sharq mutafakkiri Navoiy bilan XVII asr G'arb faylasufi Spinoza qarashlaridagi yaqinlik o'z-o'zidan ko'rinib turadi. Oybek Navoiy va Spinoza fikrlaridagi yaqinlik bilan bir qatorda ulardagi farqni ham ko'rsatadi."Faylasuf va materialist Spinozada xudo o'zining butun ilohiy sifatlarini tamoman yo'qotadi. Unda xudo degan bir nomgina qoladi. Faylasuf singari mantiqiy tushunchalar qolipida fikr yuritishga emas, balki obrazlar bilan fikrlashga intilgan shoir

Navoiyning qarashlaricha, xudo o'zining xudolik sifatlarini tomoman yo'qotmaydi. U hali ham tabiat ichida jonli va mukammal go'zal bir kuch sifatida o'zini ko'rsatib turadi.”

Oybek o'zining deyarli barcha tadqiqotlarida Navoiy ijodining g'oyaviyligi masalasiga alohida e'tibor beradi. Oybek xulosasiga ko'ra, Navoiy asarlarida g'oyaning asosan, birinchi o'rinda chiqarishi natijasida faqat uning o'z ijodidagina emas, umuman o'zbek adabiyotida yangi davr maydonga keldi. Bunga erishuvning sababini Oybek minglab yillar davomida bir ko'p xalqlar tomonidan chuqur o'zlashtirilishida deb bildi. Shuning uchun ham Oybek Navoiyni dohiy san'atkor sifatida o'rganar ekan, bu adibning tarix maydoniga kelishadi va asarlarining yaratilishidagi asosiy sabablarining ijtimoiy ildizlarini izladi. Oybek Navoiyning o'zini tekshirishdan oldin, u yashab ijod etgan davr va tuzumni tekshirdi va Navoiydek dahoni ham hamma buyuk daholar singari o'z davri va xalqi yaratdi, degan xulosaga keladi. Asarlarining yaratilish sabablarini ham Oybek san'atkorning asosan yana shu davr va xalq bilan chambarchas aloqada bo'lishi hamda jamiyatning yangi ilg'or g'oyalarini o'zida aks ettirishi va jahonning eng ilg'or madaniyatini o'zlashtira olishida deb biladi. Natijada Navoiy “xamsa”sini “bir ko'p qadimiy madaniyatlarning oddiy va falsafiy fikrining shoirona sintezidir” deb baholadi Navoiyning qator ishqiy she'rlarida shoirning sevgisi, yorning obrazi reallashmaydi. U mavhum bir g'oya bo'lib qolaveradi.

Demak, Oybekning izlanishlari, fikr va mulohazalari ana shunday keng qamrovli. Bu ishlarning mohiyatini aniq anglash uchun chuqur zehn bilan asarlarni o'rganish lozim bo'ladi.

O'zbekning navoyishunoslikka qo'ygan ilmiy ishlari o'zining ana shunday keng qamrovi muammoli ekanligi bilan ajralib turadi. Oybek ilmiy mushohadadan badiiy mushohadaga o'tgan ilmiy qarashlarini badiiy jihatdan sentezlagan ilmiy zaminga asoslanib badiiy kashfiyot darajasiga ko'targan, Navoiy davri tarixi va Navoiy shaxsini yuksak darajada yoritib bergan olim – san'atkordir. Uning

Navoiyga bag'ishlarga ko'plab maqola va tadqiqotlari navoiyshunosligimiz xazinasidagi nodir javoxirlardir.

Oybekning Navoiy ijodi va hayotini o'rganish yo'lidagi ilmiy izlanishlarining samarasi bo'lgan bu nodir javoxirlarni ko'zdan kechirchach ekanmiz. Ularning o'zbek adabiytshunosligi uchun nechog'li ahamiyatli ekanligining guvohi bo'lamiz.

Oybek buyuk shoir Navoiyning adabiy ijodi san'at, ilm, fanga qilgan xizmati, siyosiy faoliyati, qisqacha aytganda bu ulug' shaxsiyatning ijodiyoti – madaniy o'rni va roli temuriylar davrida O'rta Osiyo tarixi, balki, butun musulmon sharqining tarixiy- madaniy vaziyati bilan anglashiladi, - deb hisoblaydi. Shu sababdan avvalo Mir Alisher Navoiyning har tomonlama boy ijodini va bu ijodni sug'organ adabiy fikrni, manbalarni to'la o'rganish uchun u yashagan tarixiy sharoitni oydinlashtirib oladi.

Davlatda baland martabalarga ega bo'lgan Navoiy asrdoshlari – shoirlar, olimlar va san'at ahillariga moddiy va ma'naviy ko'magini ayamagan. Shu kabi jihatlarini inobatga olgan holda Oybek Navoiyni sa'nat va adabiyotning haqiqiy homiysi sifatida tasvirlaydi.

Asarda bu kabi muhim ilmiy tushunchalar izchil ifodalanganining guvohi bo'lamiz. Shu bilan birga Mir Alisher hayotining boy va asl mazmunini, muxtalif faoliyatining eng porloq jihatini tashkil etgan, real bir xazina kabi bizga qolgan, bizga va bizdan so'ngi nasllarga uning xotirasini yetkazgan narsa uning shoirliigi, uning prozasi ekanligi ta'kidlangan.

Demak Navoiyning yoshlikdan shariyatga, adabiyotga, ilmga chanqoqligi malum, lekin uning necha yoshdan sher yoza boshlagani kishini yoyga soladi. Oybek ushbu maqolasida bu savolga quyidagicha javob beradi:

“Alisher necha yoshdan sher yoza boshlagani aniq yemas. Uning 47 ming misradan iborat katta “chor devon”ning birinchi qismini tashkil etgan va yoshlikda yozilgan g'azallariga qarab ham qay yoshda yozilganini aniqlash mumkin emas.

Ammo ba'zi tarixiy faktlar uning yosh bolaligidan she'rlari va bolalik ijodi bo'lgan asarlari xalqqa, hatto u zamonning dongdor shoirlariga manzur bo'lganligini ochiq ko'rsatadi.”<sup>26</sup>

Oybek o'z fikrini, Lutfiyning Alisherga, uning g'azaliga bo'lgan munosabati ifodasi bilan tasdiqlaydi.

Oybek Navoiyni nafaqat ijodkor sifatida, balki inson, davlat arbobi sifatida ham nihoyatda yuksak baxolaydi va uning barcha fazilatlarini ochib berishga harakat qiladi. Shu o'rinda Navoiyni chinakam sanat homiysi, minglab sanatkorlarni yetishtirgan ijodkor sifatida ham tariflaydi. Uning har bir sohadagi faoliyatini zo'r iftixor bilan tilga oladi.

Navoiyning shu kabi boshqa asarlarining chuqur tadqiqi Oybekning “Alisher Navoiy” nomli maqolasida atroflicha berilgan. Bu maqola 1948-yilda yozilgan va “Sharq yulduzi” jurnalining 1948-yil 4-sonida bosilgan. Maqolada har bir davr uchun o'ta muhim bo'lgan masalalar ko'tarilgan hamda adabiy merosimizni o'rganish sohasidagi kamchiliklar, yutuqlar va takliflar haqida gapirilgan. Chunki, o'zbek xalqining qariyb ming yillik adabiyotini o'rganish boshqa olimlar qatorida Oybekning ham zimmasiga tushgan edi.

O'zbekiston va O'rta Osiyo xalqlarining umumiy tarixi chuqur o'rganilmagani adabiy taraqqiyot jarayonini har taraflama oydinlashtirish masalasini yanada qiyinlashtirardi. Chunki, adabiy hayotni tarixiy taraqqiyotdan uzib bo'lmaydi.

Bu kabi qiyinchiliklar va o'zbek adabiyotshunosligining yoshligiga qaramay klassik adabiyotni o'rganish sohasida jiddiy ishlar qilingan edi, deyish mumkin. Shunday ishlardan biri ushbu maqoladir. Maqolada Navoiyning asarlari nihoyatda samimiy va aniq ta'riflanadi. Maqola o'zining ilmiyligi bilan bugungi kun adabiyotshunosligi uchun ham katta ahamiyatga ega. Unda keltirilgan quyidagi jumla maqoladagi yetakchi g'oyani ifodalaydi:

---

<sup>26</sup> Oybek. Navoiy gulshani. – Toshkent: Fan, 1960. – B. 28.

“Butun umrini ona tilining tantanasi uchun bag`ishlagan Alisher Navoiy ham “Muhakamatul- lug`atayin ” asarida ehtirosi va mantiqi bilan fors tilining ustunligiga qattiq “til tegizgani” holda arab tili oldida “hurmat” saqlab, uning yuksak “samoviy” fazilatlarini ta`kidlab o`tadi.”.

Oybekning keyingi “Cheksiz umr” nomli maqolasi Navoiy tavalludining 505 yilligi munosabati bilan e`lon qilinadi. Maqolada aytilishicha, Navoiy o`z ijodiy dahosi bilan butun hayoti, kurash va faoliyati bilan nomini o`lmasladi. Navoiygacha erda insonning eng oily hissiyoti, burchi va uning insoniyligining asosiy o`lchovi- vatanga, xalqqa, bashariyatga xizmat va mehru vafo urug`ini ekmak, hayotni go`zallashtirmakdir. Navoiy o`z asarlarida har munosabat bilan takrorlagan “Yaxshi nom qoldirish” g`oyasi shudur. Yaxshi nom- o`limdan so`ng, ikkinchi va cheksiz umir” dir.

Darhaqiqat, Oybekning bu fikri juda ham o`rinli dir. Navoiyning umri chindan ham abadiy umirdir. U besh asirki qadriyat misol yashab kelmoqda. Oybek o`zining ushbu “Cheksiz umir ” maqolasida Navoiy umrini abadiylashtirgan hislatlar haqida gapiradi. “Navoiy uchun ijodiyotdan murod- xalqqa, vatanga, kishilikka xizmatdir”,-deb ta`kidlaydi.

Oybek shoirni ona tilimiz kurashchisi, ilm, san`at va madaniyat homiysi ekanini isbot qilishga urunmaydi, balki haqiqatni ifoda etadi, xolos. Oybek maqola so`ngida bu buyuk ijodkorning g`arib va muqaddas qabrini unutmazlikka chaqiradi.

Maqolani o`qib turib shuni aytish mumkinki, Oybek uchun ham mashaqqatli ilmiy izlanishdan maqsad- xalqqa, vatanga, kishilikka xizmatdir. Uning barcha ilmiy va ijodiy izlanishlari vatanparvarlik , burch hislari bilan limmolimdir. Shunday ekan Oybekni ham “Cheksiz umir” sohiblari qatoriga hech ikkilanmay qo`shishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, “Navoiy” romani o`zbek romanchiligining ajoyib namunasi va juda katta yutug`idir. Bu roman jahondagi rus, ingliz, ukrain, nemis,

belorus, qozoq, turkman, ozarbayjon, tojik, arab, fors, eston, latish va xitoy tillariga tarjima qilingan va hamma joyda kitobxonlarga manzur bo'lgan.

Darhaqiqat, "Navoiy" romani o'zining badiiy - estetik qimmatini, mazmun-mohiyati, badiiy - tasviriy vositalarga limmo-limligi, voqealarning izchilligi, taixiy haqiqatning ko'zgusi bo'la olganligi, qahramonlarning bir-biri bilan, ya'ni to'qima va tarixiy obrazlarning uyg'unlashganligi bilan ham yuksak tahsin va e'tiroflarga loyiq asardir. Shu bois ham bu asr mana necha yillarki, o'z qadr-qimmatini yo'qotgan emas, yo'qotmaydi ham. Chunki chinakam badiiy san'at asari hech qachon o'lmaydi. Bunday asarlarni xalq unutmaydi. Oybekning o'zbek mumtoz adabiyotida yorqin siymo, ulug' mutafakkir sanalgan Navoiy obrazini go'zal tasvirlab bera olgan bu romani mangu yashayveradi.

## **2.2 Oybek asarlarini o'rganishda biografik metoddan foydalanish**

Ma'lumki, badiiy asarlarni o'rganishda uning muallifi haqidagi ma'lumotlar ham ayriча ahamiyat kasb etadi. Bu ma'lumotlar ko'pincha, asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini teranroq anglashda, asarning ijtimoiy-estetik mohiyatini to'g'ri belgilashda yordam beradi.

Muallifning shaxsiyati uning asarlarida turlicha aks etishi mumkin. Ba'zan u ochiqdan ochiq ifodalansa, ba'zan muayyan vositalar orqali tasvirlanishi, ba'zi hollarda esa muallifning shaxsiyatini bevosita idrok etish ancha qiyin kechadi. Metodist olimlar to'g'ri ta'kidlashganiday, "har bir asar muallifning ma'naviy portretidir". Badiiy asarning ijodkor shaxsiyatining ifodachisi ekanligini anglab yetgandan keyingina asar mohiyati ham, uning muallifining nuqtayi nazarlari ham o'quvchiga to'laroq va teranroq tushuniladi. Shundagina muallifning adabiyotga, jamiyatga, shu xalq va millatga bo'lgan muhabbati va xizmatlari to'la idrok etiladi.



“Yozuvchi, san’atkor oddiy kishilardan shu bilan ham farq etadiki, uning asarlarida hayot hodisalari, faktlar faqat qayd etilibgina qolmaydi. Har gal biror hodisa, fakt haqidagi hikoya-yozuvchining, san’atkorning shu narsaga, hodisaga, pirovardida-kishilarga ijobiy yoki salbiy munosabati bilan sug’orilgan bo’ladi. Bu “munosabat faktori” shunchalik muhimki, faqat ugina bizga hodisa haqida haqqoniy, mukammal, yorqin tasavvur bera oladi. San’atkorning ijobiy munosabati, mehri va muhabbati bilan qizdirilgan hayotiy fakt, xuddi endigina cho’g’dan olingan temirdek, o’z rangi, harorati, fazilatlari bilan hayratga solishi va tahsinimizga sazovor bo’lishi mumkin”.

Asar matni ustida ishlash asnosida muallif nuqtayi nazarini aniqlashga imkon beradigan nuqtalarga o’quvchilar e’tiborini tortish, shu asosda muallif aytgan fikrlar zamiridagi aytilmagan nuqtalarni topishga imkon qidirish mumkin bo’ladi.

Ayrim adiblarning tarjimai holini o’rganishda boshqa kishilar, mashhur shaxslar, yirik olimlar, yirik davlat va jamoat arboblarning fikrlaridan ham foydalanish mumkin bo’ladi. Yozuvchining tarjimai holini o’rganishda uning o’z fikrlaridan foydalanish ham keng tarqalgan usullar turkumiga kiradi. Ammo bunda ham me’yor bo’lishi shart. Chunki, ayrim hollarda yozuvchining o’z so’zlarida ham zamonaning, uni qurshab turgan muhitning, bularning yonida esa biz tasavvur qila oladigan va qila olamaydigan ko’plab obyektiv va subyektiv omillarning kuchi ham bo’lishi mumkin.

Kirish mashg’ulotlarining asosiy maqsadi adabiy matnni o’rganish uchun qulay sharoit yaratish ekanligi. Kirish mashg’ulotlarining sharhli va’zlar, yozuvchi tarjimai holini o’rganish, o’quvchilarni darsga qiziqtirish, tarixiy ma’lumot berish, lug’at ustida ishlash, matn ustida ishlash kabi turlari mavjud. Shuningdek, adabiy adabiy asarni o’qishning shakliy turlari: sinfda va uyda o’qish, ovoz chiqarib va ovoz chiqarmay o’qish, sharhlab o’qish, jo’r bo’lib o’qish, rollarga bo’lib o’qish, lirik asarlarni o’qish. Badiiy asarni o’qishning

mazmuniga ko'ra turlari: mantiqiy o'qish, adabiy o'qish, ifodali o'qish, badiiy o'qish.

V-VIII sinflarda adabiyotni o'rganishda kirish mashg'ulotlari darsining birinchi bosqichi hisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi bu mashg'ulotlarning mazmuni, maqsadi va usullarini to'g'ri belgilashi kerak.

Kirish mashg'ulotidan kuzatiladigan maqsad o'quvchilarning matni to'g'ri idrok etishi va tushunib olishi uchun eng qulay sharoit yaratishdan iborat.

Adabiy o'qish darslarini to'g'ri yo'lga qo'yishning muhim shartlaridan biri o'quvchilarning diqqatini darsga jalb etish va ularni darsga qiziqtirishdir. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida yangi mavzuga o'tib, yangi asarni o'qiy boshlaydilar. Adabiy o'qish darsida anglashilmagan so'zlar, iboralar, maqollarni o'quvchilarga tushuntirib berishni talab qilinadi, chunki busiz asarni ifodali o'qib, mukammal tahlil qilib bo'lmaydi. O'quvchilar asarni to'la tushunsalar, ifodali o'qish, analiz va qayta hikoya qilish, reja tuzish, umuman, matn ustida ishlashning hamma turlari muvaffaqiyatli chiqadi. Asarni o'qishdan oldin tushuntirish o'qituvchi bu usul bilan ish olib borish uchun dastlab asardagi tushunilmagan so'zlarni ajratadi va ularni izohlab chiqadi. So'ngra matni o'qishdan ilgari o'quvchilar hamma so'zlar bilan tanishib, lug'at daftariga ko'chirib yozadilar. O'qituvchi bunday so'z, ibora va maqollarni doskaga yozib qo'yishi ham mumkin, o'quvchilar doskadan ko'chirib yozadilar. Asarni o'qish vaqtida tushuntirish usulida adabiy o'qish darslarida eng ko'p qo'llaniladi. O'qituvchi bu usul bilan ish olib borayotganida tushunilmagan so'z va iboralarni asardagi gaplar bilan bog'lab izohlaydi. Ba'zi ibora va ifodalar shunday xususiyatga ega bo'ladiki, agar u matndan ajratib izohlansa, boshqa ma'no anglashiladi. Anglashilmagan so'z, ibora va ifodalarni asarni o'qigandan so'ng tushuntirish usulida o'qituvchi dastavval matni bir marta o'qib beradi. O'quvchilarga tushunarli bo'lmagan so'z, ibora va maqollarni tushuntirish esa asarni qayta o'qish vaqtida, asar mazmunini o'zlashtirish bilan birga olib boriladi. Buning uchun o'quvchilar asarni yoki

asardan olingan parchani diqqat bilan ichida o'qiydilar hamda tushunilmagan so'z va iboralarni aniqlaydilar. Ba'zan o'qituvchi asarni ikkinchi marta o'qiydi, so'ngra qiyin so'z va iboralarni tushuntirib beradi. Bunday usulni hajm jihatidan kichik, mazmunan murakkab asarlarga tatbiq etish mumkin.

Anglashilmagan so'z, ibora va ifodalarni asarni tahlil qilish bilan bog'lab tushuntirish usulida tushunilmagan so'z va ifodalar ustida izoh berish asarni tahlil qilish bilan uzviy bog'lanadi. O'qituvchining izohi so'z, ibora va ifodalarning ma'nosini oydinlashtishi bilan birga, badiiy asarlarning eng muhim tomonlarini ochishga yordam beradi. Asardagi ayrim so'z va iboralarga izoh berish asarning tahlili bilan bog'lab boriladi, bunday usul ko'pincha kichikroq lirik asarlarga tatbiq etiladi.

O'qituvchi o'quvchilarga tushunilmaydigan so'z va iboralar ustida izoh berish bilangina cheklanib qolmay, shu so'zlarni qanday tushuntirish yo'llarini o'ylashi zarur.

Ayrim so'z va iboralarni o'quvchilarga tushuntirishning eng oddiy yo'llaridan biri-shu so'zlarning ma'nodoshlarini topib tushuntirishdir. Arxaik so'zlar, arab-fors so'zlari, shevaga xos so'zlar ana shunday ma'nodoshlari bilan tushuntirilib beriladi. Matn ustida ishlashda o'quvchilar ko'proq faollik ko'rsatishi kerak, kirish mashg'ulotlarida esa asosiy ish va dastlabki so'z o'qituvchining zimmasiga yuklanadi.

O'qituvchi biror asarni o'tishdan oldin o'quvchilarga xoh tarixiy ma'lumot bersin, xoh yozuvchining tarjimai holini hikoya qilsin, kirish mashg'ulotining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati o'qituvchi nutqining asosli, jonli va ta'sirli bo'lishi bilan bog'lanadi. O'qituvchining kirish so'ziga nisbatan qo'yiladigan birinchi va asosiy talab-nutqning prinsipial bo'lishidir. O'qituvchi beradigan ma'lumot mazmunan bir butunlikni tashkil qilishi bilan birga, o'tilganlarni o'quvchilarning esiga solish mashg'ulotlari sistemasida alohida o'rinni egallashi kerak, shuning uchun o'qituvchi har safar kirish mashg'ulotiga tayyorlangan vaqtida uni o'tilgan

bilimlar bilan qay ravishda bog'lash yo'lini aniqlashi lozim. O'qituvchining kirish so'zi aniq va ko'rsatmali bo'lishi kerak. Bu – o'qituvchi ma'ruzasiga qo'yiladigan talabdir. Kirish mashg'ulotlarida o'quvchilarga ko'rsatiladigan materiallar, o'qiladigan she'rlar va nasriy parchalar ularga kuchli ta'sir etishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarning tasavvur va his-tuyg'ulariga ta'sir qilishi bilan birga, muntazam bilim berish vazifasini sira esdan chiqarmasligi kerak. Shuning uchun o'qituvchining kirish so'zidagi fikrlar mantiqan izchil bayon qilinishi alohida ahamiyatga ega. O'qituvchi yozuvchining tarjimai holini bayon etishda zamoniy texnik vositalardan samarali foylanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Yozuvchining tarjimai holini ko'rsatma materiallardan va reproduksiya rasmlardan foydalanib borishi zarur. O'quvchilarga ko'proq ijodkorlarning suratlarini ekranda ko'rsatishga harakat qilish kerak. Sinfda yozuvchi haqida ma'ruza va suhbat o'tkazilgani kabi, sinfdan tashqari adabiy ekskursiya ham samarali usullardan biridir. Bunday mashg'ulotlar mazmunan sinfda o'tkaziladigan ma'ruza va suhbat kabi usullardan biridir. Agar shaharda ozmi-ko'pmi portretlar, rasmlar va qo'lyozmalarga ega bo'lgan muzey bo'lsa, kirish so'zini mana shu muzeyda o'tkazish foydalaridir. Bu kirish so'zining materiali sinfdagi dars materiallardan farqi qilmasa ham, ko'rsatma materiallar bilan boyitiladi va o'quvchilarni yanada faollashtiradi. Ekskursiya o'quvchilarni ruhlantiradi va materialga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi.

Badiiy asar matni ustida ishlashda kirish mashg'ulotlarining o'rni ayniqsa, katta. Ta'limning turli bosqichlarida o'rganiladigan adabiyot kursining asosiy mazmun va mohiyatini badiiy asarlarni o'rganish tashkil etadi. Bu jarayon bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi mumkin. Xususan, kirish mashg'ulotlari, badiiy matnni tahlil qilish, yakunlovchi mashg'ulotlar shular sirasiga mansubdir.

Kirish mashg'ulotlari o'quvchilar e'tiborini asar muallifining alohida xislatlari yoki shu asarga xos bo'lgan eng muhim qirralarni, asosiy badiiy-estetik jihatlarni anglashga, his etishga imkon berishi bilan e'tiborlidir. Yanada aniqroq

aytiladigan bo'lsa, kirish mashg'ulotlari o'quvchilarni badiyyatning navbatdagi yangi olamiga olib kirishdagi o'ziga xos yo'ldir. Kirish mashg'ulotlari o'quvchilarni o'rganilayotgan asarni to'la va hissiy qabul qilishlari uchun munosib zamin yaratishi bilan ajralib turadi. Natijada, ularda asarni o'rganish uchun ishtiyoq, qiziqish shakllanadi, paydo bo'ladi. Kirish mashg'ulotlarining shakl va mazmuni xilma-xil bo'lishi mumkin. Ba'zan u bir – ikki muhim detallar tavsifi va bayonidan iborat bo'lsa, ba'zan muayyan tarixiy davr va sharoit, yozuvchining tarjiamyi holidagi eng muhim qirralar, muayyan asar atrofidagi muhim ijtimoiy-siyosiy va badiiy estetik hodisalar tahlilidan iborat bo'lishi mumkin.

Adabiyot fani maktab ta'limining 5-sinfidan boshlab o'qitiladi. Mazkur sinfdan boshlab ijodkorlarning tarjimai holi masalasiga ham alohida soat ajratilib, pedagoglar tomonidan turli metodlarni qo'llagan holda darslar tashkil etiladi.

Ayniqsa, yozuvchi tarjimai holini o'rganishda turli interfaol metodlardan foydalanish, darsni noan'anaviy tashkil etish o'quvchi uchun ijodkor biografiyasini o'rganishda muhim hisoblanadi. Biron badiiy asarni o'rganishdan avval uning muallifi bilan yaqindan tanishish, asar g'oyasi va ruhiyatini tushunishga yordam beradi.

### **III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI**

#### **3.1 Oybek asarlarining ta'lim tizimida o'rganilishi**

Umumta'lim maktablarining 9 sinfi dasturida Oybekning “Qutlug‘ qon” romanini o‘rganishga 5 soat ajratilgan. Oybek hayoti va ijodi haqida ma’lumot beriladi. “Qutlug‘ qon” romanining yaratilish tarixi, romandagi obrazlar tizimi, Yo‘lchi va Gulnor obrazlarida o‘zbek yoshlariga xos xususiyatlarning badiiy mujassamlanishi haqida ma’lumot beriladi. Romandagi Yo‘lchi va Mirzakarimboy obrazlarida turli ma’naviy qutbdagi shaxslarga xos xususiyatlarning aks etishi kuzatiladi. Romanning badiiy qimmatini tahlil etilib, yozuvchining obraz yaratish va asar kompozitsiyasini qurishdagi mahorati o‘rganiladi. Umumta'lim maktablarining 9-sinfi darsligida “Qutlug‘ qon” romanidan ayrim boblar keltirilgan<sup>27</sup>.

Yozuvchining “Navoiy” romani akademik litseyning 3 bosqichida 2 soat o‘rganiladi. Unda Navoiyning shoir va inson sifatidagi siymosi o‘rganiladi. SHu bosqich uchun tuzilgan majmuada “Navoiy” romanidan boblar keltiriladi<sup>28</sup>.

Umumta'lim maktablari va akademik litseylarda badiiy asar tahlilida ko‘proq didaktik tahlilga murojaat qilamiz. Didaktik tahlil badiiy matnning sirini kashf

---

<sup>27</sup> Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. 2-qism. – Toshkent: Yangiyo‘l poligraf servis, 2014. – B.39-59.

<sup>28</sup> Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning 3-bosqich o‘quvchilari uchun / To‘xliyev B., Shermurodov T., Isayeva Sh. – Toshkent: Bayoz, 2014. – B.176-202.

etishga, muallifning niyatini anglashga, asar jozibasini ta'minlaydigan jihatlarni aniqlashga qaratilgan faoliyatdir.

Didaktik tahlili hamisha jamoa bo'lib amalga oshiriladigan pedagogik-psixologik va badiiy-estetik jarayondir. Pedagogik maqsadga yo'naltirilganlik didaktik tahlilning asosiy belgisi bo'lgani va har qanday pedagogik tadbir hamisha kamida ikki kishi tomonidan yuzaga keltirilgani uchun didaktik tahlil jamoa faoliyatdir. Didaktik tahlilning ishtirokchilari ko'proq bo'lishadi va barcha aqliy-estetik operatsiyalar makon, zamon hamda qatnashchilarning imkoniyati-yu saviyasi hisobga olingan holda amalga oshiriladi<sup>29</sup>.

O'quv tahliliga o'rganilayotgan badiiy asardagi tasvirning hozirgi hayotiy va badiiy mantig'i hamda estetik o'ziga xosligini anglash orqali o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan va jamoa shaklida amalga oshiriladigan estetik-pedagogik faoliyatdir tarzida ta'rif berish mumkin.

Pedagogika fanlari doktori Q.Yo'ldoshev badiiy asarni didaktik tahlil etish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati uch yo'nalishda uyushtirilishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Bular muallifga ergashib tahlil qilish, timsol (obraz)lar asosidagi tahlil, muammoli tahlillardir.

Muallifga ergashib yoki tekstual tahlil 5-7- sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda ko'proq qo'llaniladi. Ayniqsa, kichikroq hajmli she'riy va nasriy asarlarni didaktik tahlil etishda bu yo'nalish juda qo'l keladi.

Katta hajmli epik asarlar ko'proq yuqori sinflarda o'rganiladi. Bunday asarlarni tekshirishda timsolli tahlil usulidan foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan, Oybekning "Qutlug' qon" romanini timsolli tahlil qilish katta samara beradi. Yo'lchi, Gulnor, Yormat, Unsun obrazlarining o'quvchilar tomonidan jonli odamlar, o'z taqdiriga, o'ziga xos insoniy tabiatga ega tirik kishilar tarzida qabul etilishiga erishish kerak bo'ladi. SHundagina, bu timsollar tuygan tuyg'ular o'quvchilarga ham yuqadi, ta'sirlantiradi, binobarin, tarbiyalaydi. O'quvchilarning

---

<sup>29</sup> Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – B.168.

badiiy timsollarni darhol ijobiy va salbiy guruhlarga ajratishlariga yo‘l qo‘ymaslik, har bir badiiy timsolning qarama-qarshi tabiatli kishilar nuqtai nazaridan qanday baholanishi mumkinligiga e’tibor qaratish lozim.

Asarning dastlabki qismida ikki qahramon-Yo‘lchi va Mirzakarimboy obrazlari markazga chiqadi. Ulardan biri-Yo‘lchi otasi bir yil tushakda yotib qolib, ekin ham yaxshi bo‘lmaganida, «bir parcha yer»ni sotib, tog‘asi qoshiga madad izlab kelgan. Ikkinchisi-Mirzakarimboy esa mahalla baqqolining ishbilarmon o‘g‘li edi. Jussasi kichkina bo‘lgani uchun Karim chittak laqabini orttirgan bu zot bir paytlar boshiga mushkul bir ish tushganida ham otadan qolgan yerni sotmay, vaziyatdan amal-taqal bilan chiqib ketgan va hatto tez orada Toshkentning manaman degan boylaridan ham o‘zib ketgan.

Sho‘ro mafkurasi hukmron yillarda Mirzakarimboy “ilonning yog‘ini yalagan”, “hamma boylar kabi ayyor, mug‘ombir, puxta-pishiq” kishi sifatida talqin qilib kelindi. Bugun mamlakatimizdagi ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat o‘zgargan bir paytda Mirzakarimboy obraziga munosabat ham o‘zgacha tus oldi. Ayrim adabiyotshunos va yozuvchilar Mirzakarimboy obrazi tasvirida qora buyoqlardan ko‘p foydalangani uchun Oybekka ta’na toshlarini otsalar, ishbilarmonlarning mamlakatimizdagi bugungi mavqelaridan kelib chiqib, ayrim adabiyot muallimlari uni ijobiy qahramon sifatida talqin etmoqdalar.

Oybek tasviridagi Mirzakarimboy faqat salbiy yo faqat ijobiy qahramon emas. U g‘oyat ishbilarmon bo‘lgani, pulning, yerning qadriga yetgani va hisobsiz boylikka ega bo‘lgani holda, oddiy insoniy fazilatlarga ega emas. U Yo‘lchining onasi og‘ir ahvolda qolganida, hatto bolasining qonuniy mehnat haqini ham qiynalib, og‘rinib, ming pisanda bilan beradi; keksayib, kuchdan-madordan qolgan SHOqosimni itdan badtar qilib haydaydi; Gulnorni sevishini bila turib, Yo‘lchidan uni yulib, tortib oladi; Yormatning manqurtlashishi-yu Yo‘lchining qamalishi ham uning holisona xizmatiziz ruy bermagan... Sh”nday ekan, u qanday qilib romanning “bosh ijobiy qahramoni” bo‘ladi?! Nahotki, mustaqillik mafkurasi



Mirzakarimboydek insonparvarlik g'oyalaridan mutlaqo olis bo'lgan ishbilarmon kishilarni himoya etsa?! Nahotki, mustaqil davlatimiz Yo'lchilarning kelajakda mirzakarimboylar tomonidan toptalishi va xor-zor bo'lishiga yo'l qo'ysa?!

“Mirzakarimboy yerga o'ch odam edi. Yerli-suvli odamlar, qanday bo'lmasin bir sababdan qiynalib qolsalar, darrov ularning pinjiga tiqilar yo o'rta kishi qo'yib, yerni tezroq o'z qo'lga o'tkazishga tirishar edi. Hatto, yer sotishni hayoliga keltirmagan odamlar” ning yerlarini, agar ularning yerlari o'z yerlariga chegaradosh bo'lsa, o'zinikiga qo'shish uchun hech nimadan toymas. har qanday nomus va adolatning betiga tupurar edi”.

Oybek tasviridagi ana shu Mirzakarimboy yo'lchiga (u olis-qarindoshi bo'lgani uchun!) o'ziga o'xshashni emas, balki «nomusli kambag'al» bo'lishni maslahat beradi: «Sen har narsani Ollohdan so'ra, u bersa-xo'p; bermasa-xafa bo'lma, taqdirga shukr qil, nomusli kambag'al bo'l. U dunyoda foydasini bilasan».

Mirzakarimboy-ikki qiyofali kishi. U Yo'lchiga bir xil maslahat beradi, ammo o'zi teskarisini qiladi. o'zi bu «foniy» dunyoning boyligi va barcha lazzatlaridan to'la bahramand bo'lsa-yu, ammo Yo'lchidagi iymon nurini narigi «boqiy» dunyoga qaratsa...

“Rahmatli onasi nimalarni orzu qilar edi!-deb yozadi Oybek Unsinni qurshagan hayollar haqida,-Boy tog'anikida ishlab, Yo'lchi ko'p pul orttiradi, uy-joy qiladi, yer oladi... qani?"/

Nafaqat bechora onaning uy-joy, yer-suv haqidagi orzulari, balki Yo'lchining Mirzakarimboydan hatto bir tiyin ham olmay turib, Gulnor bilan baxtli bo'lish xaqidagi orzulari payhon bo'ladi. bo'larni suk,ir hayot emas, balki togasi Mirzakarimboy ko'ra-bila turib o'z k\$li bilan payhon etadi.

Oybek yo'lchi bilan Mirzakarimboy o'rtasidagi munosabatlarni izchil kuzatar ekan, 1916 yil qo'zg'oloni arafasidagi halq hayoti manzaralari o'zining barcha “ijtimoiy» ranglari bilan tobora yorqinroq, gavdalanib boradi. Ikki qutbga ajralgan personajlar o'z taqdirilarida qo'zg'olonning har ikki tomonida qolgan

kuchlarni umumlashtiradilar. nihoyat, qo'zg'olon kapitalistik tuzum unsurlarining Turkistondagi feodal turmush tarziga notekis kirib kelishi oqibatida murakkablashgan ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatning Qonuniy natijasi sifatida ruy beradi va shunday tasvirlanadi. Buni tushuntirish orqali o'quvchida shu davr va yozuvchi maqsadi haqida aniq tasavvurlar hosil qilish lozim.

Badiiy asar muammoli tahlil puxta bo'lishi uchun o'quvchilar badiiy matn bilan yaxshi tanishibgina qolmay, uni to'liq hazm qilgan bo'lishlari ham kerak. Chunki faqat o'zlashtirilgan fikr fikr uyg'otadi, singdirilgan hissiyotgina tuyg'u qo'zg'atadi. Muammoli usul bilan tahlil etishda o'quvchilarni shunchaki bahsga tortish kerak emas, balki ularning butun kuchi badiiy matnning mag'zini ochishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Muammoli tahlil kutilgan samarani berishi uchun matnga sinfdagi o'quvchilar hayotiy tajribalari va egallagan bilimlari darajasidan kelib chiqib erkin yondasha olishlari zarur. Misol uchun, Oybekning "Navoiy" asari muammoli yo'l bilan tahlil etiladigan bo'lsa, o'qituvchi o'quvchilar oldiga: "Mo'min Mirzo o'limida Husayn Boyqaro gunohkormi?" tarzida savol qo'yishi va o'quvchilardan o'z fikrlarini faqat badiiy matnga tayangan holdagina asoslashlarini talab etishi mumkin. Gunoh, gunohkorlik, ayb va aybdorlik, qismat, inson ma'naviyati singari tushunchalar atrofida fikr yuritish jarayonida o'quvchilar Husayn Boyqaroning ulkan fojiasini yaqindan, bevosita, his etadilar. SHuningdek, asar tahlilida bir necha muammolarni qo'yib, ular orqali o'quvchilarning mustaqil fikr yurita olish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Muammolar quyidagicha qo'yilishi mumkin: "Navoiy va Husayn Boyqaro orasidagi ziddiyatlarga nima sabab bo'ldi?", "Navoiy ruhiy iztiroblari romanda qanday aks ettirilgan?", "Navoiyning saroydan uzoqlashishi sabablarini izohlang.", "Oybek Navoiyning ijod onlaridagi holatini qanday tasvirlagan?" va boshqalar.

Badiiy asarni muammoli tahlili jarayonida sinf o'quvchilarini guruhlariga ajratish va qo'yilayotgan muammoga har bir guruhning javobini tinglash orqali yaxlit xulosaga kelish ham samara beradi. Bunda guruhlarda aytilgan fikrlar

keyingi guruhlar tomonidan to'ldirilib boriladi va yakunida barcha fikrlar umumlashtiriladi.

Umuman, Oybek romanlarini o'rganishda qo'llaniladigan usullar o'quvchini ma'naviy yetukligini ta'minlashga, estetik didini yuksaltirishga xizmat qiladi.

### **3.2 Interfaol usullari orqali Oybek ijodini tadqiq etish**

"Interfaol" so'zi ("inter") ingliz tilidan olingan bo'lib, «inter» - o'zaro, "akt" - faol harakat, faollik, ta'sirchanlik) o'zaro harakat, birgalikdagi faoliyat ma'nolarini anglatadi. O'zaro, birgalikdagi faoliyat jarayonida tarbiyachi-tarbiyalanuvchi, tarbiyalanuvchi-tarbiyalanuvchi orasida ta'lim maqsadlariga erishish yo'lida tashkil etiluvchi hamkorlikni anglatishi. Tarbiyachi va tarbiyachilar, shuningdek, tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yuzaga kelishini ta'minlovchi ta'limiy faoliyat interfaol ta'lim deb yuritiladi. Interfaol metod-ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchilar hamda tarbiyachi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali tarbiyalanuvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Interfaol metod-** ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlardir.

Interfaol metodlarni qo'llash mashg'ulot samaradorligini oshirishga yordam beradi.

## ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАР ХУСУСИЯТЛАРИ

### МУАММОЛИЛИК

**Ўқитувчи вазифаси** – ўқувчини муаммоли ситуацияга олиб кириш  
**Ўқувчи вазифаси** – бу муаммоли ситуациянинг ечимини мустақил топиш. Аммо ўқувчи муаммодан чиқиш учун етарли билимга эга эмас. Шу боис ўқувчи - ўқитувчи ва бошқа ўқувчилар кўмаги орқали керакли бўлган билимларни шакллантиради. Бунда ўқувчи мустақил равишда ўз мантиқи, тафаккури, билимларини ишлатишга мажбур бўлади. Энг кучли муаммолилик – ўқитувчи учун ҳам ечими ноаниқ бўлган муаммога жавоб топиш вазифасини танлашдир.

### ЎҚУВ ФАОЛИЯТИ АДЕКВАТЛИГИ

Ўқувчининг таълими унинг ҳаётий эҳтиёжларига нисабан адекват, яъни мос бўлиши. Айниқса, бу масала базавий таълимдан кейинги босқичга тааллуқли. Аммо мактаб таълимида ҳам ҳаётий эҳтиёжлар бўйича кенг билимлар бериш зарур, масалан, гендер таълим, низолар ва фуқаролик таълими. Касб таълимида адекватлик ўз қўли билан ушлаб кўриш, синаб кўриш имконини беради ҳамда ўқувчининг шахсий эмоционал алоқадорлиги вужудга келтирилади. Адекватлик контекст таълимда очиқ намоён бўлади.

### ҲАМКОРЛИК

Фаол усулларнинг энг муҳим кўрсаткичи - коллектив фаолият ҳамда баҳс ва мунозара, суҳбат услубида ўқиш ҳисобланади. Бу усул таълимнинг индивидуаллигидан воз кечмайди, балки индивидуализациянинг намоён бўлиши учун хизмат қилади. Коллектив фаолият асосида ўқиш ўқувчиларнинг тез ва кенг билим эгаллаши учун хизмат қилиши тажрибаларда исботланган.

### Interfaol metodning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

-norasmiy baxs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, tarbiyalanuvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, guruh jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida tarbiyalanuvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Interfaol usullar ko'p turli bo'lib ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, tarbiyachidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tarbiyalanuvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma malakalarni hosil qilish, shuningdek, tarbiyalanuvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tamonidan egallagan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash tarbiyachidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Interfaollik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ta'lim jarayoni ham shunchalik samarali bo'ladi<sup>30</sup>.

Zamonaviy metodlar yoki interfaol usullar, o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o'quvchi talabalarda mantiqiy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardor, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Interfaol metodlarni tanlash mezon – ularning ta'lim va tarbiya, rivojlantirish masalalarini yechishga yuqori yo'nalganligidir. Bu mezon turli xil metodlarni u yoki bu doiradagi vazifalarni yechish imkoniyatlarini baholash yo'li bilan joriy etiladi, Chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o'zlashtirishda ularning imkoniyatlari turlichadir. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning ilg'or usullarini qo'llash, o'qitish jarayonida yuqori natajalarga olib keladi. Ta'lim usullarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni turli-tuman zamonaviy usullar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkili qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida

---

<sup>30</sup> Ishmuhamedov R. Abduqodirov A. Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008

faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda interfaol usullarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni ommaviy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu usullar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Metod tanlash nafaqat o'quv maqsadidan, balki o'quv material mazmuniga va bu fanning murakkabligiga bog'liq. Bundan tashqari metodlarni tanlashda talabalarning soni, ularning o'quv imkoniyatlari, ta'limning davomiyligi, o'quv-moddiy sharoitlar va o'qituvchining mahoratiga bog'liq<sup>31</sup>.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim – tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda<sup>32</sup>.

O'quv maqsadlari pedagogik jarayonni tashkil etuvchi qismlarining eng muhimi, yetakchisi bo'lib hisoblanadi. Pedagogik jarayon, o'zining qanchalik murakkabligi va davomiyligidan qat'iy nazar, u eng avvalo maqsadni aniqlashdan boshlanadi. Pedagogik jarayonning boshqa tashkil etuvchi qismlari (tamoyil, mazmun, uslub, vosita, shakl) belgilangan maqsadga bo'ysunadilar. ular maqsadga muvofiq holda tanlanadilar va o'zaro uyg'unlashtiriladilar. Pedagogik maqsad - bu pedagog va talabaning hamkorlikdagi faoliyati natijasini oldindan tasavvur etishdir.

Adabiy asarlarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyatga ega. Asarning tur va janri uni tahlil qilishga oid metod va usullarning belgilanishiga asos bo'ladi. Taniqli metodist M.A. Рыbnikova: «Metodik usullarni

---

<sup>31</sup> Tojiboeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – T., Fan va texnologiya, 2007.- B.16

<sup>32</sup> Azizxo'jaeva N.N.. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T., 2003.- B.13

asar tabiati taqazo qiladi... Balladani reja asosida tahlil qilish mumkin, Biroq lirik she'ni rejalashtirish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Kichkina hikoya to'liq hajmda o'qiladi va tahlil qilinadi. Romandan alohida, yetakchi boblarni ajratib olamiz, ulardan birini sinfda, boshqasini uyda, uchinchisini sinchiklab tahlil qilamiz va matnga yaqin holda qayta hikoyalaymiz, to'rtinchi, beshinchi, oltinchilarini tezroq tarzda tahlil qilib qisqacha qayta hikoya qilamiz, yettinchi va sakkizinchi boblarning parchalari alohida o'quvchilarning badiiy o'qishlari shaklida beriladi, epilogni sinfga o'qituvchining o'zi aytib beradi. Topishmoqlarning javobi topiladi va yod olinadi, maqollar izohlanadi hamda hayotiy misollar bilan dalillanadi, masal esa unda ko'zda tutilgan xulosa nazarda tutilgan holda tahlil qilinadi»<sup>33</sup>.

Bularning barchasi adabiy asar tahlilida uning tur va janr xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatib turadi. Prof. Q. Yo'ldoshevning yozishicha, «turli adabiy asarlar bilan ish yuritilganda tahlil usullari mutlaqo o'zgarib ketmaydi, lekin o'quvchining asarga yondashishi, munosabat tarzi o'zgaradi»<sup>34</sup>. Buning juda katta nazariy va amaliy ahamiyati bor. Zero, «asarlarni tur va janr xususiyatlariga ko'ra o'rganish san'atdan lazzatlanish, asarni uning badiiy butunligi hamda takrorlanmas mohiyatini his etish qobiliyatni rivojlantirishni nazarda tutadi»<sup>35</sup>.

Adabiy asarning badiiy estetik mohiyati uning kompozitsiyasini, ya'ni undagi turli-tuman qahramonlar, bir-biriga o'xshamaydigan sahnalar, alohida joy, manzara, vaziyat tasvirlari, monolog, dialoglar, o'y, xayol, tush va boshqa turli komponentlarning murakkab tartibini o'rganish, sharhlash orqali o'zlashtiriladi. Tahlil jarayonida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalaniladi.

Adabiy o'qish o'qituvchining ish faoliyatidagi asosiy metodik vosita bo'la oladi. Adabiy o'qish vositasida alohida olingan qahramonning, yoki bir necha qahramonlarning saviyasi, ularning asarda tutgan mavqei, asar mavzusi, yozuvchi ko'zda tutgan badiiy-estetik niyatning ifoda tarziga e'tibor tortilishi mumkin. Masalan,

---

<sup>33</sup> To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: 2006. – B. 58.

<sup>34</sup> Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. . – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – B. 118.

<sup>35</sup> Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. . – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – B.136.

Akademik litseylarning 3bosqichida Oybekning «Qutlug‘ qon» romanini o‘qish jarayonida roman janrining o‘ziga xos xususiyatlari tushuntirilmasa, o‘quvchilar mazkur asarlarning asl mohiyatini, ularda ko‘zda tutilgan badiiy-estetik mohiyat mag‘zini chaqa olmaydilar. Natijada asardagi haqiqiy badiiy tarovat yo‘qqa chiqadi, u o‘quvchilar ongiga yetib bormaydi, ularning qalblarida tegishli his-tuyg‘ularning paydo bo‘lishiga yordam berolmaydi.

Adabiy asarning, jumladan roman janriga mansub bo‘lgan asarlarning matni ustidagi ish adabiy ta’limning o‘zak masalalaridan biridir. U «o‘quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat»<sup>36</sup> yaratadi. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar asarning poetik mohiyatini anglab yetadi, uning mazmunini tahlil qiladi, mavzuning talqinlariga e’tibor qaratadi, tasvirlanayotgan voqea-hodisalar, qahramonlar va umuman, asardagi voqealar rivojiga muallif munosabatini aniqlashga harakat qilishadi.

Metodist olim Safo Matjonning guvohlik berishicha, «Ayrim o‘qituvchilar epik asarlar tahlilini jo‘nlashtirib, yozuvchini o‘quvchi bilan yonma-yon qo‘yib qo‘yadilar. Holbuki o‘quvchilarni yozuvchining badiiy-ijodiy olamiga boshlash zarur. Buning uchun asar tahliliga oid mustaqil ishlarni o‘tkazishda o‘quvchilar oldiga «Qahramonning bu ishi to‘g‘rimi?», «Uning o‘rnida bo‘lganda nima qilar eding?» kabi ijodiy fikrlashga qaratilmagan savollar o‘rniga: «SHu vaziyatda qahramon o‘zini boshqacha tutishi mumkinmidi?», «Yozuvchi uni nima uchun aynan shu holatda tasvirleydi?» singari savollar qo‘yilsa, yozuvchining ijodiy laboratoriyasi bilan chuqurroq tanishishga imkon tug‘iladi»<sup>37</sup>.

O‘quvchilvr asar mohiyati, yozuvchi mahorati, qahramon ruhiy olami tasvirini chuqurroq tushunishlari uchun adabiyot darslarida turli xil interfaol metodlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu fikrlar bevosita Oybek romanlarini o‘rganishga ham taalluqlidir.

Interfaol metodlardan biri “Tushunchalar asosida matn tuzish”dir.

---

<sup>36</sup> Zunnunov A., Adabiyot o‘qitish metodikasi. . – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – B.16.

<sup>37</sup> Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – B. 22-23.



“Tushunchalar asosida matn tuzish” metodi bilish-izlanish turidagi ishlar sirasiga kirib, bu ish turli xil mantiqiy amallarni talab etadi: tahlil qilish va umumlashtirish, dalil va hodisalarni qiyoslash, ulardagi mushtaraklik va farqli tomonlarni aniqlash, asosiy va ikkinchi darajali belgilarni ajratish, sabab-oqibat aloqalarini ochib berish muhimdir. Odatda o‘quvchilar noma’lum hodisalar, yangi materiallarga duch keladilar, yangi bilimlarni egallash va o‘quv muammosini hal qilish yo‘llarini izlab topishni talab etadigan muammoli vaziyat paydo bo‘ladi.

**Mazkur metodni qo‘llash texnologiyasi:**

Masalan, Oybekning “Qutlug‘ qon” romani” mavzusi bo‘yicha:

- 1) Roman, qahramon, portret tasviri, badiiy maqsad
- 2) yozuvchi ijodi, zulm va adolatsizlik; chin muhabbat;
- 3) Mirzakarimboy obrazi, Gulnor va Yo‘lchi obrazi, epizodik obrazlar;
- 4) Badiiy mahorat, yozuvchi uslubi, o‘ziga xoslik, poetik tasvir.

O‘quvchilarga ushbu tayanch so‘zlar tarqatiladi, uni uyda mustaqil holda bajarib kelish topshiriladi. “Qutlug‘ qon” romani bo‘yicha tuzilgan matnlar keyingi darsda uy ishini so‘rash jarayonida o‘qib beriladi. Yaxshi tuzilgan matnlar rag‘batlantiriladi.

“Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi” interfaol metodi.

Darsda “Oybek hayoti va ijodi” mavzusi mashg‘ulot o‘tkazilayapti. O‘qituvchi o‘quvchilarga Oybekning doston, hikoya, qissa, roman janriga xos asarlarini ajratishni topshiradi. Dastlab o‘qituvchi doskaga Oybek asarlarini chalkashtirilgan holda yozib qo‘yadi. So‘ngra, ulardan mazkur qaysi janrga kirishiga qarab, tasniflashni taklif etadi.

“O‘ch”,

"Oltin vodiya shabadalar"

“Singan umid”,

“Quyosh qoraymas”,

“Tillatopar”,

"Ulug' yo'l"  
 "Baxtigul va Sog'indiq",  
 "Bolalik",  
 "Navoiy",  
 "Fonarchi ota",  
 "Qutulg' qon",  
 "Gulpor opa"  
 "Dilbar –davr qizi"  
 "Nur qidirib",  
 "Musicha",  
 "Bola Alisher"

doston	hikoya	qissa	Roman
"O'ch", "Baxtigul va Sog'indiq", "Dilbar – davr qizi"	"Singan umid", "Tillatopar", "Fonarchi ota", "Gulpor opa" "Musicha"	"Bolalik", "Nur qidirib", "Bola Alisher"	"Oltin vodiya shabadalar" "Quyosh qoraymas", "Navoiy", "Qutulg' qon", "Ulug' yo'l"

**Erkin yozish.** O'quvchilarga besh daqiqa ichida "Oybekning "Navoiy" romani" mavzusi bo'yicha o'z xayollariga kelgan barcha narsalarni to'xtamasdan yozishni taklif qilish mumkin. Besh daqiqa tugaganida (eslatma, besh daqiqa tugadi deb e'lon qiling va ishni tugallash uchun yana bir daqiqa vaqt bering, zero, qiziqarli fikrlar odatda tang vaziyatlarda tug'iladi) ularga o'z yozganlarini sheriklariga o'qib berishini taklif etish mumkin.

Mazkur bosqichda o'qituvchining ixtiyorida ko'p imkoniyatlar bo'ladi. Masalan, juftliklarga o'z fikrlarini butun guruh bilan o'rtoqlashishni taklif etish va guruh-y-aqliy hujum vaziyatini yaratish mumkin.

### **“NUQTAI NAZARING BO‘LSIN” USULI.**

#### *Maqsadi:*

-o'quvchilar muayyan muammoga o'z nuqtai nazarini asosli dalillab, ximoya qilishga o'rganadilar;

-o'quvchiga muammo muhokamasi jarayonida o'z fikrini o'zgartirish imkonini berish;

-o'qituvchi barcha o'quvchilarni munozaraga jalb etish va sinfdagi hamma o'quvchilar o'rtasida munozara jonlanishini yuzaga keltirishi mumkin.

“Nuqtai nazaring bo'lsin” usuli o'quvchilar o'rtasida munozara yuzaga kelishi va ular munozara jarayonida o'z fikrlarini o'z sinfdoshlaridan ularning nuqtai nazarini o'zgartirishga ishontiradigan g'oyalarni eshitib o'zgartirish yoki avvalgisini mustahkamlash imkonini berish maqsadida qo'llanadi. O'quvchilar shuningdek, maktab, mintaqa, respublika va jumla insoniyat uchun xarakterli bo'lgan eng dolzarb muammolar o'z nuqtai nazarlarini asosli dalillash va himoya qilishga o'rganadilar.

O'quvchi ochiqdan-ochiq savollar usuli bilan odatda dars jarayonida faol bo'lmagan o'quvchilarni munozarada ishtirok etishga majbur qiladi.

#### Mashqni o'tkazish uslubiyati

1. Tayyorgarlik: o'qituvchi sinfning to'rt burchagiga yoki sinfning ma'lum ochiq makoniga to'rtta tablichka osib qo'yadi.

2. Sinf o'lcham yoki o'quvchilar soniga bog'liq holda olti yoki sakkiz ko'ngillini chaqiradi. Bordi-yu, o'yinda sinf o'quvchilarning bir qismi ishtirok etsa, unda qolganlari o'z joylarida o'tiraveradilar.

3. O'yin paytida band bo'lishi uchun ishtirok etmayotgan o'quvchilarga ham topshiriq berish zarur.

O‘yining o‘zini boshlashdan avval o‘qituvchi darsga yo‘l-yo‘riqlar berishi zarur, jumladan:

1. Takidlov o‘qib berilganidan keyin o‘z fikringizga muvofiq tablichkalar yonidan joy egallang.

2. O‘z nuqtai nazaringizni asosli dalillab berishga shay turing.

3. Agar muammoga nuqtai nazaringizni o‘zgartirishga undovchi asosli dalilni eshitsangiz, o‘z o‘rningizni almashtirishingiz mumkin.

4. Sinfdoshlaringiz takidlariga o‘z fikringizni bayon etishga shay turing.

5. O‘qituvchi o‘yinda ishtirok etmayotgan o‘quvchilarga topshiriqlar beradi, masalan:

- ularning fikricha eng ahamiyatli ta’kidlovlarni yozib borish;

- o‘yin jarayonida o‘z o‘rnini o‘zgartirmagan o‘quvchilarni yozib borish;

- eng asosli dalillab berilgan javoblarni yozib borish.

**Adabiyot fanidan 9-sinf dasturida berilgan Oybekning “Qutlug‘ qon”** romani g‘oyasini tushuntirishda “Nuqtai nazaring bo‘lsin” usulidan foydalanib darsni tashkil etish mumkin.

“Nuqtai nazaring bo‘lsin” usulining maqsadi shuki, o‘quvchini bevosita adibning ijodiy ishlari, ma’naviy merosimizga qo‘shgan ulkan hissalarini to‘g‘risida (adibning o‘zidan, yoru-do‘stlari tomonidan bayon etilgan) video-lavhalarda ko‘rsatish, asardagi so‘zlarni o‘quvchi tomonidan o‘qitilmay, balki asar qahramonlari tomonidan video- lavhalar orqali yetkazishni ta’minlashdan iboratdir.

Ma’lumki, inson ma’lumotning ko‘p qismini ko‘rish va eshitish organlari orqali qabul qiladi. Bu texnologiyalar orqali darsni tashkil etish o‘quvchilarni bir vaqtda ko‘rganlari asosida ishlashga, bu ulardagi tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi.

O‘qituvchi tayyorlangan bu lavhalarni ko‘rsatish bilangina maqsadga erishmaydi, uni izohlashi, to‘ldirib borishi, o‘quvchilarni jalb qila olishi, tanqidiy-mushohadali fikrlarini eshitishi, izohlab, xulosalab borishi lozim.

Tayyorlangan video lavhada “Qutlug‘ qon” asar qahramoni Yo‘lchining Mirzakarimboy xonadoniga ilk marta tashrifi tasvirlanib, (asar matni bo‘yicha) ularning ovozlari ham yozilgan tasvir ko‘rsatiladi.

Tasvirda Yo‘lchi otasi vafot etganda majbur bo‘lib, bir parcha yerni sotganini aytganda Mirzakarimboy unga qarata “Er sotgan er bo‘lmaydi, er kishi yer sotmaydi”- deydi.

Savol – Boyning hayotiy qarashlari qanday? Mirzakarimboyning ushbu fikrlarini kim qanday izohlaydi?

“Nuqtai nazaring bo‘lsin” usuli orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning savol yuzasidan har kim o‘zining mustaqil (o‘rnida tanqidiy) fikrini bildirishiga alohida e’tibor qaratadi.


O‘qituvchi fikrlarni umumlashtiradi, xulosalaydi, berilgan savollarning javobini o‘quvchining bildirgan fikrlarida ekanligini ta’kidlaydi, baholaydi.

**“Zakovatli zukko” metodi.** Bilimlarni puxta o‘zlashtirishda o‘quvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish qobiliyatlariga ega bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega.

Ushbu metod o‘quvchilarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Uni qo‘llash o‘z xohishiga ko‘ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay imkoniyatni yaratadi.

Bunda o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri, aniq javob qaytara olishlari zarur. Murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o‘rtacha arifmetik qiymatini topish asosida o‘quvchi (talaba)larning tafakkur tezligi aniqlanadi.

Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llash orqali o‘quvchi (talaba)larning tafakkur tezligi quyidagi sxemaga asoslanuvchi faoliyat yordamida aniqlanadi:



Bunda Oybekning “Qutlug‘ qon” romanini o‘rganishda quyidagi savollarni o‘quvchilarga tavsiya etish mumkin:

1. Romanda qaysi davr voqealari aks ettirilgan?
2. “Qutlug‘ qon” romani qahramonlari kimlar?
3. Mirzakarimboy va uning dunyoqarashini yoritishda yozuvchi mahorati nimada ko‘rinadi?
4. Yormat obrazini ta’riflang.
5. Romanda Gulnor va Yo‘lchi muhabbati qanday aks ettirilgan?
6. Nima uchun romanga “Qutlug‘ qon” sarlovhasi qo‘yilgan?

Umuman, ta’lim tizimida Oybek romanlarini o‘rganishda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati katta. Biz darsda interfaol metodlar orqali o‘quvchi bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birgalikda Oybek romanlari mohiyatini chuqurroq anglab yetishlariga erishamiz.

### **3.3. OCHIQ DARS ISHLANMASI**

**Mavzu: Oybekning hayoti va ijodini o'rganish**

**Darsning maqsad:**

- 1. Ta'limiy maqsad:** O'quvchilarni buyuk mutafakkir Oybek ijodi va hayoti haqidagi bilim, malakalarini yanada kengaytirish.
- 2. Tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarni mustaqil fikriashga, o'z fikrini dalillar bo'yicha asoslashga o'rgatish.
- 3. Rivojlantiruvchi maqsad:** O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, hamkorlikda ishlay olish qobiliyatini shakllantirish, bir-biriga o'zaro hurmatini oshirish.

**Dars uslubi:** interfaol usullardan foydalangan holda musobaqa darsi.

**Dars jihozi:** texnik vositalar, 9-sinf adabiyot darsligi, ko'rgazmali qurollar va savol varaqasi.

#### ***Darsning borishi***

Dars Shoira Dildora Raximovaning "Oybek nidosi" she'ri bilan boshlanadi.

Oybekman-yuragida qayg'usi bisyor,

Oybekman-bir ko'rmasa oy vasliga zor.

Oybekman-xalqi uchun kuylab baxtiyor,

Sizga o'z o'tmishimdan keltiray ash'or.

Sinf o'quvchilari guruhlarga bo'linadi, har bir guruhga nomi beriladi.

2. "Navoiy" guruhi
3. "Bobur" guruhi
4. "Mashrab" guruhi

**O‘qituvchi:** Qani o‘quvchilar fikrimizni jamlash, tilimizni charxlash uchun “aqliy hujum” musobaqasini boshlaymiz.

1. Qaysi ijodkor turkiy til bilan Xitoydan Xurosongacha o‘lkalarni jangu-jadalsiz zabt etganligini ta‘riflaydi?

Javob: Alisher Navoiy

2. Turkiy “Xamsa” qachon va kim tomonidan yaratilgan?

Javob: XV asrning 2-yarmida A. Navoiy tomonidan yaratilgan.

3. Laff va nashr nima? Javob: Yig‘ish va yoyish.

4. Mashrab so‘zining ma‘nosi nima? Javob: - Ilohiy sharobga erishmoq.

5. “Kishan”, “Qalandar ishqi” g‘azallari qanday vaznda yozilgan?

Javob: Aruz vaznida.

3 ta guruhga 15ta savol beriladi va guruh g‘oliblari aniqlanadi.

Guruhlarning uchalasi ham g‘olib bo‘lganligi uchun ularga 10 balldan beriladi, dars davomida eng ko‘p ball to‘plagan guruh g‘olib deb topiladi.

### ***Yangi mavzuning bayoni***

Yangi mavzu bo‘yicha kirish suhbatini o‘tkaziladi 3 guruhga 3 tadan savol beriladi.

Birinchi “Alisher Navoiy” guruhi a‘zolari sevimli adibimiz haqida to‘plagan ma‘lumotlarini bayon etadilar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixini bezab turgan qutlug‘ nomlar orasida Muso Toshmuhammad o‘gli Oybek nomi alohida hurmat va e‘tiborga sazovor. Oybekning mashaqqatli hayoti va ijodini tashvishli asrning qariyb barcha talotumlari chetlab o‘tmagan va adib asarlarida o‘zining yorqin ifodasini topgan....



Ikkinchi “Zahriddin Bobur” guruhi a’zolari davom ettiradilar. Oybek bor yo‘g‘i 63 yil umr ko‘rdi. Ammo shunga qaramay, u o‘zbek adabiyoti tarixida piri Alisher Navoiydan keyin eng ko‘p va samarali ijod qilgan ulug‘ shoir, adib, tarjimon va olim sifatida o‘rin egallaydi.

Abdulla Qahhor qalamkash birodarining 60 yilligi munosabati bilan quyidagi so‘zlarni bejiz yozmagan edi:

Yozuvchining umri yil bilan o‘lchanmaydi, ijodiy faoliyatining samarasi bilan o‘lchanadi. Oybek 400 yilga to‘g‘ri keladigan 40 yillik ijodiy faoliyatining bir lahzasini ham samarasiz o‘tkazgani yo‘q. Oybek bu jihatdan ham hozirgi va kelajak adabiy avlod qarshisida ustod bo‘lib gavdalanadi."

Uchinchi “Mashrab” guruhi a’zolari yangi mavzuni davom ettirib to‘ldiradilar.

Shubhasiz 40 yillik ijodini 4000 yilga to‘g‘ri keladi, - desak arziydi. Oybekning hayoti qanday tikanli va xatarli yo‘llardan o‘tgan, o‘zi esa qanday zulm va kulfatlarni boshidan kechirgan bo‘lmasin, u iste’dodi mevalarini xalqqa to‘la-to‘kis bag‘ishladi. Tinimsiz ijod qildi. Ijod qilganda ham, o‘zbek adabiyotining shoh asarlaridan biri bo‘lgan “Qutlug‘ qon” romanini yaratdi.

Ko‘p asrlik o‘zbek adabiyotiga bugunga qadar faqat ulug‘ adibnigina 20 jilddan iborat asarlari nashr etilgan. Bularning biri- Navoiy Alisher, ikkinchisi esa Oybekdir...(vahokazo)

Uchala guruh ham to‘g‘ri ma’lumotlar to‘plab, tushunarli va aniq fikr orqali yozuvchining hayoti va ijodi haqida to‘liq ma’lumot berganligi uchun taqdirlanadi.

Endi guruhlariga navbatdagi topshiriq beriladi. Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning adib hayoti, ijodi haqidagi bilimlari sinovdan o‘tkaziladi.

Yangi pedagogik texnologiya asosida “interfaol” usullardan biri “klaster”dan foydalanamiz:

Uchala guruh ham toza qog‘oz olib istagan xilda “klaster” chizmasini chizadilar.


O‘qitish andozasining 1-bosqichini boshlaymiz. “Klaster” o‘quvchilarni mavzu haqida erkin, ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradi.



“Klaster” fikrlashning to‘g‘ri chiziqli bo‘lmagan shaklidir.

“Klaster” bo‘lish juda oson va tez eslab qolinadi.

Ta’lim-passiv emas, balki faol faoliyatdir. Bu bosqichda o‘quvchilarning qiziqishi uyg‘onadi, zarur savollar tug‘iladi va bilimlarni egallash uchun sabablar shakllanadi.

## Klaster






Guruh o‘quvchilari o‘zlari tuzgan “Klaster”jadvali asosida mutafakkir ijodi haqida batafsil ma'lumot beradilar.

Guruh ma'lumotlari solishtiriladi va guruhlar rag‘batlantiriladi. Guruh o‘quvchilariga 4 topshiriq beriladi. Topshiriq yangi mavzuni hamda o‘tilgan mavzularni ham mustahkamlashga katta ahamiyatga egadir. Bu topshiriq ham interfaol usullardan biri “BENN”diagrammasidan foydalanish bilan boshlanadi.

“BENN” diagrammasida ikkita yoki uchta shoir yozuvchining o‘xshash va farqli tomonlari tahlil qilinadi.

Tanqidiy fikrlashning 2-bosqichi “BENN” diagrammasi mavzusidagi asosiy ma’noni anglashga yordam beradi. “BENN” diagrammasini tuzish uchun guruhdan ham, juftlikdan ham foydalanish mumkin, alohida-alohida berilsa ham bo‘ladi.



Uchala guruhning ham diagrammalari sinf doskasiga ilib qo'yiladi.

Guruhlar baholanadi.

O'qituvchi 4-topshiriqni yakunlab, 5-topshiriqni topshiradi.

Endi, aziz o'quvchilar, bilim va malakalarni umumlashtirish uchun

"Sinkveyn" (oq she'r) yozish usulidan foydalanamiz. Bu 5 qatorlik she'rda Oybek hayoti va ijodini qamrab oluvchi ma'lumotlar beriladi.

"Oq she'r" yozish uchun:

1. Ot tanlanadi.
2. Ikkita sifat tanlanadi.
3. Uchta fel' tanlanadi.
4. His-hayajonli gap to'rtta so'zdan iborat bo'lishi kerak.
5. Birinchi so'zning sinonimi tanlanadi.

"Navoiy", "Bobur", "Mashrab" guruhlarini sevimli yozuvchimiz Oybek haqida "Sinkveyn" tuzishga kirishadilar.

Guruhlar o'zlari yozgan she'rlarini ifodali o'qib, xulosalaydilar.

O‘qituvchi 5-shartni yakunlab, qatag‘on yillarida adabiyotimizning A. Qodiriy, Cho‘lpon va Fitratdek darg‘alari yo‘qotilganidan so‘ng, ularning asarlarini o‘qish ham siyosiy jinoyat hisoblanganligi, adabiyot olamida bir bo‘shliq paydo bo‘lganida Oybek oldida marhum ustozlar o‘rnini egallash vazifasi turganligini aytadi.

Oybek o‘z oldiga tarix tomonidan qo‘yilgan bu vazifasini sharaf bilan bajardi.

O‘qituvchi mavzuni yakunlab, g‘olib guruh aniqlandi. O‘qituvchi o‘quvchilarni darsda qatnashganligiga qarab baholadi.

**Uyga vazifa.** Oybekning “Qutlug‘ qon” romanini o‘qib kelish.

## XULOSA

Oybek o'zining ibratli hayoti va intilishlari, sermaxsul va samarali ijodiy merosi bilan adabiyotimiz nufuzini jahoniy miqyoslarga ko'tarishga barakali hissa qo'shdi. Ulug' akademik shoir, nosir, adabiyotshunos va tarjimon Oybek ijodiy merosi madaniyatimiz va adabiyotimizning tarkibiy qismi bo'lib, uning ijodini o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ammo bugungi kunda ulug' shoir ijodiy merosini bilish va tadqiq etish g'oyatda muhimdir. Shuning uchun ham shoir ijodiga chuqurroq kirib borish, asarlarining o'ziga xos jihatlarini yoritish, uning san'atkorlik mahoratini bilib olish uchun har bir asarini yangicha qarashlar asosida tahlil etishimiz va o'quvchi yoshlarga o'rgatishimiz zarur.

Oybek buyuk shoir Navoiyning adabiy ijodi san'at, ilm, fanga qilgan xizmati, siyosiy faoliyati, qisqacha aytganda bu ulug' shaxsiyatning ijodiyoti – madaniy o'rni va roli temuriylar davrida O'rta Osiyo tarixi, balki, butun musulmon sharqining tarixiy- madaniy vaziyati bilan anglashiladi, - deb hisoblaydi. Shu sababdan avvalo Mir Alisher Navoiyning har tomonlama boy ijodini va bu ijodni sug'organ adabiy fikrni, manbalarni to'la o'rganish uchun u yashagan tarixiy sharoitni oydinlashtirib oladi.

Davlatda baland martabalarga ega bo'lgan Navoiy asrdoshlari – shoirlar, olimlar va san'at ahillariga moddiy va ma'naviy ko'magini ayamagan. Shu kabi jihatlarini inobatga olgan holda Oybek Navoiyni sa'nat va adabiyotning haqiqiy homiysi sifatida tasvirlaydi.

Asarda bu kabi muhim ilmiy tushunchalar izchil ifodalanganining guvohi bo'lamiz. Shu bilan birga Mir Alisher hayotining boy va asl mazmunini, muxtalif faoliyatining eng porloq jihatini tashkil etgan, real bir xazina kabi bizga qolgan, bizga va bizdan so'ngi nasllarga uning xotirasini yetkazgan narsa uning shoirligi, uning prozasi ekanligi ta'kidlangan.

Oybek tadqiqotlariga va shu tadqiqotlar uchun olib brogan tayyorgarlik variantlariga nazar tashlasak muallif faqat temuriylar davri adabiyotiva Navoiy

ijodigagina oid materiallar yig'ish bilan kifoyalanmaganigini ko'ramiz. Ularda adabiy hayot bilan bir qatorda umuman tarix, iqtisod, etnografiya, davlatni boshqarish sistemasi, sug'orish va irrigatsiya, xalq hayoti shaxar tarixi va relyefi, ijtimoiy munosabatlar va hokozolarga oid materiallar alohida o'rin ishg'ol qiladi. Bularning barchasi Oybekning doimo va muttasil ravishda juda katta niyatlar bilan yashaganini, ular adibi va olim Oybekning Navoiydan tashqari Beruniy, Temur, Bobur, Mashrab haqida yaratilgan va yaratilishi niyat qilib qo'yilgan asarlarga tayyorgarliklar va shular davri hayoti, ijodi haqidagi ilmiy ishlarni ko'rinishi sifatida baholana oladi. Oybek buyuk kishilarga hos bo'lgan tabiatan va tug'ma kamtar inson edi. U Navoiy haqida o'z vaqtida (30-yillarda) turli hajmlardagi katta kichik tadqiqotlar yozib bitirgan. Bu uning ijodiyotining bir qismini tashkil qiladi holos.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida tarbiyalanuvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

## Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov.I.A Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –Toshkent: O'zbekiston, 2008.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi “Xalq so‘zi” // 2016 yil 8 dekabr
3. Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning 3-bosqichi o‘quvchilari uchun To‘xliyev B., Shermurodov T., Isayeva SH. – T.: Bayoz, 2014. – b.176-202 Millatni uyg‘otgan adib. – T.: Universitet 2005.
4. Aleksandr Genis. Qalb fotografiyasi // Jahon adabiyoti, 2003. № 1
5. Azizxo‘jaeva N.N.. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T., 2003.
6. Yoqubov H. Oybek lirikasida G‘oyaviylik va mahorat. –T.: Fan, 1963
7. Yoqubov H. Adibning mahorati. -Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti , 1965
8. Qo‘shjonov M. Oybek mahorati. –T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965
9. Sobirov O. Oybek ijodida folklor. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. - Toshkent, 1975.
10. Nazarov B. Bu sehrlı dunyo. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1980.
11. Karimov N. Oybek. Mashhur o‘zbek adibining hayoti va ijodidan lavhalar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1985.
12. Karimov N.Oybek gulshanida qolgan g‘unchalar. - Toshkent, 1985.
13. Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. (19 jildlik) –T.: Fan, 1975-1982.
14. Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993<sup>1</sup>
15. Ulug‘bek Hamdam. Badiiy tafakkur tadriji.Monografiya va maqolalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002.
16. Sabriddinov A. Oybekning she‘riy mahorati. –T.: Fan, 2006.
17. Oybek. Navoiy. Roman. T.: O‘qituvchi, 1985



18. Karimov N. Oybek. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-jild. – T., 2003
19. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. 2-qism. – T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2014. – B.39-59
20. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Universitetlar va pedagogika institutlari bakalavr ixtisosini oluvchilar uchun darslik. –Toshkent: O‘qituvchi, 1999,
21. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016.
22. Ishmuhamedov R. Abduqodirov A. Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste’dod, 2008
23. Tojiboeva D. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. –T.: Fan va texnologiya, 2007.- B.16
24. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T., 2006.
25. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O‘qituvchi, 1996.
26. Zunnunov A., Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 1992.
27. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Xalq merosi, 2004.
28. Yoqubov H. Oybek (adabiy tanqidiy ocherk). –T.: O‘zadabiynashr, 1950

## Tayanch soʻzlarning oʻzbekcha-inglizcha lugʻati

<b>No</b>	<b>Atamalar</b>	<b>Tarjimasi</b>
1	Adabiyot	Literature
2	Adabiy	Leterary
3	Asar	Work
4	Adabiyotshunos	Literaturer
5	Shoir	Poet
6	Uslub	Style
7	Yoʻnalish	Direction
8	Oʻrganish	Learning
9	Biografiya	Biography
10	Muallif	Author
11	Tadqiqot	Explore
12	Metod	Method
13	Nazariya	Thesis
14	Ijtimoiy	Social
15	Sanʼat	Art
16	Qahramon	Hero
17	Individuallik	Individuality
18	Davr	Epos, age, period

19	Sharoit	Condition
20	Roman	Novel
21	Iste'dod	Ability
22	Tahlil	Explore
23	Tasvir	Picture
24	Janr	Genre
25	Omil	Factor
26	Ilhom	Fervent
27	She'r	Poet
28	Ijod	Creative work
29	Obraz	Role
30	Fazilat	Character
31	Badiiy	Literary
32	Hayot	Life
33	Bog'liqlik	Dependence
34	Muhit	Environment
35	Ruhiyat	Mental
36	Ma'lumot	Information
37	Dastur	Reversing rod
38	Izlanish	Explore
39	Bob	Head
40	Xulosa	Summery

